



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

"YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!"

VATANPARVAR

FIDOLARNI UNUTMANG!

Moziylardan mangu boqqan
Bobolarni unutmang,
To'maris-u Shiroq yanglig'
Fidolarni unutmang.
Vatanning har zarrasini
Yuragiga jo etgan,
Ona elga ko'ksi qalqon
Vafolarni unutmang!

Ne yog'iylar tig' ko'targan
Jannatmisol bu yurtga,
Och qashqirlar aylab makon
Chang solgan baxt, umidga.
Jaloliddin kabi erlar
Aylangan sor burgutga,
Temur Malik kabi otash –
Nidolarni unutmang!

Bu zaminning keksa-yoshi
Bosh ko'targan zulmatga,
Egilmagan xalq bardoshi
Aylangan qadriyatga.
Mahmud Torobiy shaxti
Jo bo'lgan har jo'mardga,
Mard-u zako pir Najmiddin
Kubrolarni unutmang!

Zulm-u jafo, istibdodning
Chorasi bitta – isyon,
Hurlik deya ichgan ontning
Yuragi erur iymon.
Chingiziylar istilosin
Ildizin kesgan sulton
Amir Temur – cho'ng jahongir
Tug'rolarni unutmang!

Bu kunlarga yetmoq uchun
Qurbon bo'ldi ne umr,
Tavof aylab Vatan poyin
Jondan kechdi ne yovqur.
Jang-u jadal, kurashlarda
Umrin bermoqqa qodir,
Xalqim debon ketgan shahid –
A'lolarni unutmang,
Fidolarni unutmang!

Zulfiya YUNUSOVA



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 14-AVGUST
№33 (3199)



“Eng ulug‘, eng aziz” ko‘rik-tanloviga

Vatan va mustaqillik bugun biz uchun g‘oyatda qadri, muqaddas so‘zlarga aylangan. O‘tgan 35 yil davomida Vatanni sevish, bebaho ne‘mat – istiqlolni ko‘z qorachig‘iday asrash mas‘uliyati nainki ong-u shuurimizdan mustahkam o‘rin oldi, balki el farovonligi hamda hayotimiz, orzu-maqсадlarimiz, farzandlarimiz kelajagi shu yurt bilan, uning mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liqligini chuqur anglab yetdik.

Bolalikdan rivojlangan davlatlar hayoti, taraqqiyotiga havas qilardim. Nega ularda unday, nega bizda bunday, degan savollar ko‘pchiligimizda bo‘lgani tabiiy. Bugun o‘sha rivojlangan davlatlardan kam emasmiz. Qaysi soha bo‘lmasin, xoh ilm-fan, xoh iqtisodiyot, xoh raqamli texnologiyalar yoki sport yo‘nalishi – barida ilg‘or davlatlar safiga kirib boryapmiz. Eng muhimi, bu o‘zgarishlar inson qadri, uning huquq va manfaatlarini, erkinligi hamda munosib hayot kechirishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ayniqsa, yosh avlod uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, o‘z iqtidor va salohiyatini namoyon etishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Bugun Yangi O‘zbekiston qiyofasi tobora yangilanib, jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar kechmoqda. Iqtisodiyot, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat, ilm-fan bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport sohasi ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu bejiz emas. Chunki sport nafaqat musobaqa, balki sog‘lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon etadigan katta kuchdir.

Shu ma‘noda **so‘nggi yillarda sport sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamidida ham avvalo inson, uning salomatligi va kelajagi, yoshlarning orzu-intilishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadi mujassam.** Yangi sport inshootlarining barpo etilishi, mahallalarda sport maydonchalarining ko‘payishi, bolalar va o‘smirlar sportiga e‘tiborning kuchayishi, iqtidorli yoshlarni saralash va ularni professional sportga yo‘naltirish tizimining takomillashib borayotgani buning amaliy ifodasidir.

Ana shu nuqtayi nazardan, “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g‘oya sport sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini ham yaqqol ifoda etadi. Chunki xalqaro musobaqalarda Vatan bayrog‘ini baland ko‘tarib, yurt sharafiga himoya qilayotgan sportchilarning har bir g‘alabasi millionlab yurtdoshlarimizni bir maqsad, bir tuyg‘u – Vatan iftixori atrofida birlashtiradi.

So‘nggi yillarda sportga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Sport sohasida yaxlit tizim yaratilib, o‘z mevasini bera boshladi. Natijada so‘nggi to‘qqiz yilda mahallalarda, ayniqsa chekka-chekka qishloqlarda **2 mingga yaqin sport maydonchasi** barpo etildi, **14 ta Olimpiya va Paralimpiya markazi** to‘liq zamonaviy infratuzilma bilan ta‘minlandi. Hududlarda **200 dan ortiq yirik sport inshooti, 4 mingga yaqin xususiy sport klubi** ish boshladi. Sport bilan professional shug‘ullanuvchi yoshlar soni **2 karra oshdi**, Olimpiya terma jamoalari sportchilari **2 barobar**, Paralimpiya bo‘yicha esa **3 barobar** ko‘paydi.

Birgina o‘tgan yilda sportchilarimiz **xalqaro musobaqalarda 452 ta oltin, 418 ta kumush**

G‘ALABALAR BILAN

va 501 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi. Ularning **50 nafardan ziyodi jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi.** Shuningdek, o‘tgan yili Toshkent shahrida Olimpiya shaharchasi qad rostladi. Uning qurilishiga 2022-yil 9-noyabrda tamal toshi qo‘yilgan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari Olimpiya shaharchasi xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o‘zbek sportining olamshumul yutuqlari ramziga aylanishi, me‘moriy jihatdan mukammal, energiya tejankor va eng ilg‘or innovatsion yechimlarni mujassam qilgan zamonaviy majmua bo‘lishini ta‘kidlagandi.

Shunday ham bo‘ldi – qisqa vaqt ichida **100 gektardan ziyod maydonda muhtasham majmua qad rostladi.** Qariyb 290 million dollarlik ushbu noyob loyiha “CAMC Engineering” kompaniyasi tomonidan xalqaro talablarga muvofiq amalga oshirildi.

Eng ahamiyatlisi, shaharchada **5 ta asosiy sport majmuasi** bo‘lib, uning markazida **12 ming o‘rinli stadion** joylashgan. Xalqaro turnirlar paytida bu yerda tantanali marosimlar tashkil etiladi. Asosiysi, yashil maydon va **9 qatorli yugurish yo‘lagida yengil atletikaning 48 ta yo‘nalishi bo‘yicha musobaqalar** o‘tkaziladi. Jumladan, jahon chempionati, Brilliant ligasi, paraatletika bahslari, ko‘zi ojizlar o‘rtasida IBISA o‘yinlarini tashkil etish mumkin. Boshqa paytlarda stadiondan mahalliy o‘quv-yig‘inlar, amaliy mashg‘ulotlar orqali dual ta‘limda foydalaniladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bugungi kunda dunyoda barcha sohalar qatori sport olamida ham keskin kurash va raqobat kechmoqda. Shu bois o‘tgan yildan boshlab besh bosqichli ommaviy sport musobaqalari bilan 15 million aholi qamrab olindi. Adaptiv sportga berilayotgan e‘tibor tufayli so‘nggi uch yilda parasportchilar soni qariyb yetti karra oshib, 70 mingdan ortiq nogironligi bor shaxs ommaviy sportga jalb etildi.

Sohani raqamlashtirish va unda shaffoflikni ta‘minlash borasidagi ishlar esa yoshlarning sportdagi salohiyatini yuzaga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bugungi kunda 10 mingta maktab va 9 mingta mahalladagi yigit-qizlarning o‘z

qobiliyatini namoyon etishi, iqtidorini sinovdan o‘tkazishi va katta sport sari qadam qo‘yishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Shu maqsadda ularni professional sportga yo‘naltirish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim – Prezident Olimpiadasi o‘yinlariga start berildi.

Bir so‘z bilan aytganda, endi har yili o‘tkaziladigan Prezident Olimpiadasi nafaqat yoshlarni sportga keng jalb etadi, balki yangi iqtidorlarni kashf etish, ularni saralash va yuqori natijalarga yo‘naltirishga xizmat qiladigan samarali seleksiya tizimiga aylanmoqda.

E‘tiborli jihati, mamlakatimizda sport sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqaro miqyosda ham o‘z samarasini bermoqda. O‘zbekiston nafaqat nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etayotgan, balki yirik sport tadbirlariga mezbonlik qilayotgan davlat sifatida ham o‘z mavqeyini mustahkamlamoqda. Jumladan, 2027-yilda 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionati, 2029-yilda esa Yoshlar Osiyo o‘yinlari O‘zbekistonda o‘tkaziladi. Bu esa yurtimizda sportni rivojlantirish, yosh iste‘dodlarni qo‘llab-quvvatlash va O‘zbekistonning xalqaro sport maydonidagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

Darhaqiqat, Parij Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida mard va bahodir sportchilarimiz chinakam jasorat ko‘rsatib, O‘zbekiston sharafiga munosib himoya qilgan holda 13-o‘rinni egalladi. Ana shunday zafarli yurishning mantiqiy davomi sifatida 2025-yilda yoshlarimiz jahon universiadasi 13-o‘rinni, Bahraynda o‘tkazilgan Yoshlar o‘yinlari hamda Saudiya Arabistonidagi Islom birdamligi



YOZILAYOTGAN YANGI TARIX

musobaqalarida esa faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Bu natijalar mamlakatimizda sportni rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va yuqori malakali sportchilar zaxirasini shakllantirishga qaratilayotgan e'tibor o'z samarasini berayotganini ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi besh yilda mamlakatimiz futbol sohasida ham tub burilish davri bo'ldi. Millionlab muxlislar qalbidan joy olgan futbolda yuksak marralarni zabt etish uchun mustahkam poydevor, tizimli tayyorgarlik va iqtidorlarni erta aniqlash muhim. Hech qanday sabab-bahonaga o'rin qolmasligi, maydonda munosib natija qayd etish uchun avvalo futbolchilar kuchli, soha poydevori esa mustahkam bo'lishi kerak.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi qarori bilan, 2018–2022-yillarda futbolni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi. Iste'dodli yoshlarni tanlash, keyinchalik professional etib tayyorlash hamda milliy terma jamoalar zaxirasini yaratish maqsadida 14 ta hududda bolalar va o'smirlar futbol akademiyalari tashkil etildi. Mashg'ulot va musobaqalarda sifat oshdi. Murabbiylar, hakamlar va boshqa mutaxassislariga e'tibor kuchaydi.

2019-yil 4-dekabrda Prezidentimiz “O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” farmon imzoladi. Unda klublar faoliyatini rivojlantirish, xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlash, terma jamoalarning o'quv-mashg'ulot jarayonini zamonaviy tashkil etish, mamlakatimizda nufuzli musobaqalar o'tkazish maqsadlari belgilangan edi. 2023-yil 8-aprelda qabul qilingan ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishga oid Prezident qarori ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bunday e'tibor va tizim tufayli birin-ketin natijalar kela boshladi. 2018-yilda U-23 jamoamiz Xitoyda, 2023-yilda U-20 futbolchilarimiz O'zbekistonda o'tgan musobaqalarda Osiyo chempionligini qo'lga kiritdi. Yurtimizda FIFA va OFK dasturidagi turnirlar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

2024-yilda o'zbek futbol rivojida yangi sahifa ochildi – 23 yoshgacha bo'lgan terma jamoamiz birinchi marta Olimpiya o'yinlarida ishtirok etdi. Shuningdek, Saudiya Arabistonida o'tgan musobaqada 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarimiz Osiyo kubogini qo'lga kiritib, jahon chempionati yo'llanmasiga ega chiqdi. Eng quvonarlisi, Milliy terma jamoamiz ham yangi tarix yaratdi. Qariyb bir yil mobaynida Eron, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Qirg'iziston va Shimoliy Koreya jamoalari bilan bahs olib bordi. Natijada **futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi ilk bor jahon**



championati yo'llanmasini qo'lga kiritdi va O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Bu esa xalqimizning 34 yil kutgan tarixiy voqeasi bo'ldi. Bu tarixiy voqea nafaqat sport ixlosmandlarini, balki butun xalqimizni “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g'oya atrofida birlashtirdi.

Bunday yuksak natijalar mamlakatimizda sportni rivojlantirish, yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish va ularning xalqaro maydonlarda munosib ishtirokini ta'minlashga qaratilayotgan e'tiborning amaliy samarasidir. Shuningdek, bugun yurtimizda sportning faqat futbol yoki Olimpiya sport turlari emas, balki aql-zakovat va yuksak tafakkurni talab etadigan shaxmat kabi intellektual sport turlarini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Ayniqsa, shaxmatni ommalashtirish, yosh avlodning mantiqiy fikrlash qobiliyatini yuksaltirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni xalqaro musobaqalarga tayyorlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Buning natijasida o'zbek shaxmatchilari ham jahon va qit'a miqyosidagi nufuzli musobaqalarda munosib natijalarni qo'lga kiritib, yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqda.

Jumladan, yosh grossmeyster Javohir Sindorov Kiprning Nikosiya shahrida bo'lib o'tgan 2026-yilgi Nomzodlar turniri tarixida birinchi marotaba muddatidan oldin g'alaba qozonib, tom ma'noda tarixiy natijaga erishdi.

Musobaqa davomida u dunyoning eng kuchli grossmeysterlariga qarshi yuksak mahorat va katta jasorat bilan kurash olib bordi, har bir bahsda qat'iyat, kuchli iroda va intellektual ustunligini namoyon etdi. Ayniqsa, bir marta ham mag'lubiyatga uchramay, 14 ta partiyada 10 ochko to'plagan, natijada ochkolar va g'alabalar soni bo'yicha rekordlar o'rnatgani shaxmat olamida kamdan kam uchraydigan noyob hodisa bo'ldi.

Umuman olganda, bugun O'zbekiston sportida kechayotgan jarayonlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning uzviy davomi

sifatida namoyon bo'lmoqda. Sportga bo'lgan e'tiborning ortishi, zamonaviy infratuzilmaning yaratilishi, yoshlar uchun keng imkoniyatlarning ochilishi, iqtidorlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimlari yurtimizda sportning ommaviyligini ta'minlash bilan birga professional sportning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ham yuksaltirmoqda.

Bir vaqtlar biz havas bilan kuzatgan rivojlangan davlatlarning sportdagi yutuqlari bugun yoshlarimiz uchun orzu emas, balki erishish mumkin bo'lgan aniq maqsadga aylandi.

Ayniqsa, futbol bo'yicha milliy terma jamoamizning jahon chempionatiga ilk bor yo'llanma olgani va ishtirok etgani yosh futbolchilarimizning Osiyo va jahon miqyosidagi musobaqalardagi muvaffaqiyatlari, Olimpiya va Paralimpiya sportchilarimizning yuksak natijalari, shaxmatchilarimizning jahon arenasidagi g'alabalari O'zbekistonda sport taraqqiyoti uchun yaratilgan tizim o'z samarasini berayotganini ko'rsatmoqda. Javohir Sindorovning Nomzodlar turniridagi tarixiy g'alabasi esa yurtimizda intellektual sport turlariga ham berilayotgan e'tiborning yorqin natijasidir. Uning jahon chempionligi uchun bahsga yo'l olgani nafaqat shaxmat muxlisari, balki butun O'zbekiston xalqi uchun katta g'urur manbai bo'ldi.

Bularning barchasi bir haqiqatni tasdiqlaydi: Yangi O'zbekistonda inson salohiyatiga sarmoya kiritish, yoshlarga ishonch bildirish va ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Shu ma'noda “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g'oya sport sohasida ham o'zining chuqur ma'no va amaliy ifodasini topmoqda.


Mustaqillikning 35 yilligi arafasida erishilayotgan ushbu natijalarga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqat yanada oydinlashadi: **kechagi orzular bugun voqelikka, bugungi yutuqlar esa ertangi buyuk marralarga aylanmoqda.** Zero sportdagi har bir g'alaba ortida mustaqillik bergan imkoniyat, xalqning ishonchi va yosh avlodning cheksiz salohiyati bor.

“Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g'oyaning mohiyati ham shunda. Biz turli maydonlarda, turli sport turlarida bir maqsad – Vatan nomini ulug'lash, uning bayrog'ini yanada baland ko'tarish yo'lida birlashmoqdamiz.

Vatan va mustaqillik biz uchun nafaqat muqaddas tushuncha, balki har bir sohadagi yutuqlarimiz, har bir yangi bunyodkorlik tashabbusimiz va farzandlarimiz kelajagi bilan chambarchas bog'liq buyuk qadriyatdir. Shu yurtning farzandlari dunyo maydonlarida qo'lga kiritayotgan har bir g'alaba mustaqil O'zbekistonning tobora yuksalayotgan salohiyati, xalqimizning kuch-qudrati va yoshlarimizning beqiyos iste'dodidan darak beradi.

Demak, biz bugun nafaqat sportda, balki yangi hayot va yangi kelajakni barpo etish yo'lida ham tarixiy bosqichni boshdan kechirmoqdamiz. **Bu yo'lda barchamizni birlashtiradigan eng ulug' tuyg'u – Vatanga sadoqat, eng katta kuch – xalq birdamligi, eng ishonchli tayanch esa mustaqilligimizdir.** Ana shu birlik va ishonch bilan Yangi O'zbekiston yangi marralarni, yangi g'alabalar va yangi tarixiy zafarlarni zabt etishi shubhasiz.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”



Jangovar ruh



“Nukus” dala-o‘quv maydonida harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yuksaltirish hamda zamonaviy harbiy tayyorgarlik talablariga mos kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida navbatdagi amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Mashg‘ulotlar davomida shaxsiy tarkib tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida o‘ziga birlashtirilgan qurol-aslahalardan amaliy o‘q otish mashqlarini muvaffaqiyatli bajardi. Harbiy xizmatchilar turli masofalardagi nishonlarni aniq yakson etish, qurol bilan xavfsiz muomala qilish hamda murakkab sharoitlarda samarali o‘t ochish bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini amalda namoyon etdi. O‘q otish mashqlari davomida har bir ishtirokchining jangovar tayyorgarligi, hushyorligi va mas‘uliyati yana bir bor sinovdan o‘tdi.

Shuningdek, zirhli texnikalarni boshqarish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlarda harbiy xizmatchilar murakkab relyefli yo‘nalishlar, sun‘iy to‘siqlar va turli tabiiy sharoitlarda harbiy texnikalarni mohirona boshqarish bo‘yicha o‘z haydovchilik mahoratini yanada oshirdi. Mashqlar davomida texnikalarni belgilangan me‘yorlar asosida boshqarish, xavfsizlik talablariga qat‘iy rioya etish hamda turli vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari mustahkamlandi.

Taktik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida esa bo‘linmalar shartli jangovar vaziyatlarda harakatlanish, belgilangan marralarni egallash, shartli dushmanga qarshi jangovar vazifalarni bajarish, o‘zaro hamkorlikni ta‘minlash hamda qo‘mondonlar tomonidan berilgan



topshiriqlarni belgilangan muddatlarda sifatli ijro etish bo‘yicha amaliy harakatlarni amalga oshirdilar. Har bir mashq real jangovar sharoitlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan holda tashkil etilib, shaxsiy tarkibning tezkor fikrlashi, qat‘iy qaror qabul qilishi va jamoa bo‘lib harakat qilish qobiliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qildi.

Mashg‘ulotlar yakunlariga ko‘ra, harbiy xizmatchilar o‘zlariga birlashtirilgan qurollardan aniq va samarali foydalanish, zirhli texnikalarni ishonchli boshqarish hamda yuklatilgan vazifalarni belgilangan me‘yorlar asosida bajarishda yuksak intizom, matonat va fidoyilik namunalari namoyon etdi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida erishilgan natijalar shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarligi izchil yuksalib borayotganini yana bir bor tasdiqladi.



NAZARIYA VA



AMALIYOT UYG'UNLIGI



qidiruv harakatlarini olib bordi. Yigitlar shartli dushman joylashgan hudud, uning tarkibi va vaziyat haqidagi zarur ma'lumotlarni to'plash va ularni belgilangan tartibda qo'mondonlik punktiga yetkazish ishlarini amalga oshirdi.

Cho'lining og'ir sharoitida kechgan bu mashg'ulotlar harbiy xizmatchilardan nafaqat jismoniy chidam, balki yuksak hushyorlik, vaziyatni tez baholay olish va har bir qadamni puxta o'ylashni talab etdi. Sahro sukutga cho'mgan paytda ham har bir shovqin, har bir harakat va har bir o'zgarish e'tibordan chetda qolmadi. Chunki xavfni oldindan his qilish, vaziyatni to'g'ri anglash va eng murakkab sharoitda ham o'zini yo'qotmaslik haqiqiy harbiy mahorat belgilaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, o'quv jarayonida egallangan har bir bilim va shakllangan har bir ko'nikma ertangi natijalarga poydevor. Demak, mashg'ulotlarga sarflangan vaqt tajriba kalitidir. Ha, aynan shunday. Boisi qiyinchilikka duch kelgan harbiy xizmatchi undan qochmaydi, chekinmaydi. Har bir murakkab vaziyatdan chiqish asnosida yangi tajriba orttiradi, o'z xatolaridan xulosa chiqaradi, kuchli tomonlarini yanada mustahkamlaydi. Zero kasbining haqiqiy ustasi bo'lish bir kunda shakllanmaydi. Buning zahirida uzluksiz mashq, sabr-toqat va eng muhimi, ishtiyoq yotadi.

Qisqasi, mashg'ulotlarda berilgan vazifalar Vatan himoyachilari tomonidan yuqori mahorat bilan bajarildi. Natijalar yanada oshdi. Bilimlar boyitildi. Muhimi, safdoshlik, hamjihatlik o'z so'zini aytdi.

**Katta leytenant
Ahadjon JABBOROV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**

Bunday mashg'ulotlar Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining jangovar salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy tahdid va chaqiriqlarga munosib javob bera oladigan, har qanday vaziyatda ishonchli harakat qiladigan yuqori malakali harbiy mutaxassislarini tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

"Nukus" dala-o'quv maydonida o'tkazilgan navbatdagi amaliy mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning Vatan himoyasi yo'lidagi shayligini, jangovar ruhi va kasbiy mahoratini yanada yuksaltirishga xizmat qilgan muhim tayyorgarlik tadbirlaridan biri bo'ldi.

Aytgancha, shu kuni poligonning boshqa o'quv joyida ham turli bo'linmalar ishtirokida amaliy mashg'ulotlar qizg'in davom etdi. Bu yerda har bir harakat, har bir qaror va har bir soniya alohida ahamiyat kasb etdi. Guruh taktik harakatlar davomida razvedka-

BILIM VA INTIZOM G'ISHTLARIDAN QURILGAN DARGOH

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti. Ha, bu ta'lim maskani keyingi yillarda juda o'zgarib ketdi. Har tomonlama rivojlandi, yangilandi. Kursantlarga ta'lim berish sifati oshdi. Qisqasi, harbiy sohaga qiziqqan mardlar bu dargohning tuzi-tarbiyasini olgach, Qurolli Kuchlar saflariga fidoyi o'g'lon o'laroq kirib boradi.

Anglaganingizday, bugungi mushohadamiz ushbu sharaflı dargoh haqida kechadi.

Demak, avvalboshdan boshlasam. Prezidentimizning qaroriga asosan, Qurolli Kuchlar akademiyasi isloh qilinib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Qolaversa, mazkur qaror asosida Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalari yagona ta'lim tizimiga birlashtirilib, 5 ta institut, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda bitta markaz universitet tarkibiga o'tkazildi. Natijada zamonaviy, markazlashgan va uzluksiz harbiy ta'lim tizimi shakllantirildi.

Aytgancha, universitet tarkibida yangi fakultetlar, kafedralar hamda ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilib, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'quv dasturlari va ilg'or pedagogik yondashuvlarni joriy etish, dual ta'limni rivojlantirish, shuningdek ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga samarali tatbiq etish bo'yicha ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ha, tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

Qisqasi, mazkur islohotlar yagona markazlashgan vertikal boshqaruvga birlashtirildi. Natijada harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish, qo'shinlarning jangovar salohiyatini mustahkamlash, dual ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uzviy bog'lash imkonini yaratildi.

Shunday gaplar.

Sharoit yaratildi(mi?) Endi kursantlarning ta'lim jarayonlari va ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga ham bir qur nazar tashlasak, nima deysiz?

Bilasiz, shiddat bilan taraqqiyot sari odimlayotgan davrda qaysi soha bo'lmasin, zamonaviy ilmlarni sifatli egallashga asos bo'luvchi vositalarning o'rni beqiyos ahamiyatga ega. Shunga hamohang universitetning o'quv-moddiy bazasi, o'quv auditoriyalari, eng so'nggi texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan trenajyorlar, laboratoriya asbob-uskunalar va kompyuter texnikalari bilan jihozlangan.

Kursant va tinglovchilarning yashashi va dam olishi uchun shinam va barcha qulaylikka ega yotoqxonalar, yopiq suv havzasi, sport zallari, madaniy dam olish markazi va oshxona faoliyat yuritmoqda. Bu kabi keng imkoniyatlar Vatanimizning bo'lajak himoyachilarini sidqidildan, qunt bilan soha sirlarini o'zlashtirishlariga asos bo'lyapti.

Olingan bilim toshga o'yilgan naqsh bo'lsin.

Bugun chet tilini bilish imkoniyatlar eshigini ochish degani. Shu ma'noda universitetda bu borada ham jiddiy ishlar amalga oshirildi. Bo'lajak ofitserlarni har tomonlama bilim va ko'nikmaga ega, yetakchilik qobiliyatini yanada mustahkamlash maqsadida turli to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu qo'shimcha bilim va qo'shimcha natija olib kelishi aniq degani.

Yana bir gap. Ta'lim dargohida yigitlarning harbiy-kasbiy, nazariy-uslubiy, ilmiy-texnik, gumanitar fanlarga oid bilim darajalarini har tomonlama oshirish, ularda tanqidiy fikrlash va innovatsion ishlarni olib borishlari uchun ham jiddiy e'tibor qaratiladi.

– Ta'lim olish, tanlagan kasbini chuqur o'rganish insonning o'ziga bog'liq. – deydi 4-bosqich kursanti Abdulhakim Botirov. – Chunki bir umr o'qib ham oxirida hech kim bo'lmaslik mumkin. Va yana bir muddat izlanib, yuqori natijaga erishish, katta

yutuqlarni qo'lga kiritib, tarix yaratish ham bor gap. Men bu dargohda ana shu haqiqatni angladim. Demak, hammasi o'zimizga bog'liq. Qaysi yo'ldan yuramiz va nimani xohlaymiz – shuni aniq belgilab olishimiz kerak. Kursantlik davri tugaydi. Keyin qo'shinlar tarkibiga yo'l olamiz va o'sha yerda o'z xizmat majburiyatlarimizni bajarishga kirishamiz. Biroq olingan bilim shu bilan bitadimi? Tugamaydi. Aynan shu nuqtada u qo'l keladi. Shaxsiy tarkibni boshqarish va ishontirish, topshiriqlarni ado etishda mahoratga suyanish, ustozlar o'gitiga amal qilish orqali natija ko'rsatiladi. Demak, ishonch bilan aytamanki, universitetda hayotiy rejalarim mutlaqo yangilandi. Bu yerdagi imkoniyat, ta'lim olish sifatining oshirilishi va bildirilgan ishonchga munosib bo'lish mas'uliyati katta marralarga yetaklaydi.

Xatolardan xulosa qilish ham natijadir.

Darhaqiqat, harbiy ta'limda nazariya va amaliyot o'rtasidagi masofa qancha qisqa bo'lsa, mutaxassis tayyorgarligi shuncha samarali bo'ladi. Kursantning auditoriyada olgan bilimi o'quv-mashq majmualari, dala-o'quv maydonlari, trenajyorlar va maxsus laboratoriyalarda mustahkamlanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy harbiy amaliyotda uchraydigan vaziyatlarni o'quv jarayonida modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu kursantda qaror qabul qilishdan oldin vaziyatni baholash, o'z harakatining oqibatini ko'rish va xatolar ustida ishlash imkonini beradi.

Shu ma'noda amaliy tayyorgarlikning vazifasi faqat harakatni o'rgatish emas. U mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish imkoniyati hamdir. Yangi o'quv binolari, trenajyorlar va maxsus laboratoriyalarning barpo etilishi ham shu maqsadga xizmat qiladi.

Aniq mo'ljalga bosilgan tepki nishonni qulatadi.

Shunday, kursantlar zimmasidagi mas'uliyat og'ir. Ular shunchaki o'qigani yo'q. Yigitlar bir vaqtning o'zida aqlini charxlash bilan birga irodasini ham toblamoqda. Poligonlarda bir nishonni bir o'q bilan uryapti. Og'ir vaziyatda tezkor qaror qabul qilishni mashq qilmoqda. Safdoshi himoyasiga shoshiladi. Ey, bular shunchaki bo'lmaydi. Bu Vatanning mardlari tanlagan muqaddas yo'l va qarori ortida chiqarilgan xulosadir.

Bir o'q bilan ikki "quyon" otiladi... Hali ham sizda kursantlarning ta'lim olishi va haqiqiy jangchi

bo'lib yetishishi bo'yicha savol bormi? Unda yana bir muhim yangilikni eslataman.

Qisqasi, universitetda nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ta'lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda. Tor mutaxassisliklarni "2+2" modeli asosida o'qitish, bitiruvchilarga ikkinchi ta'lim yo'nalishi bo'yicha diplom berish amaliyoti ham joriy etildi. Bu degani kursant ham Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, ham mamlakatimizdagi oliy ta'lim dargohining diplomiga ega bo'ladi.

Ayting-chi, bu kabi ishlar avval bo'lganmi?

Yo'q, bo'lmagan. Albatta, bular davlatimiz rahbari tomonidan boshqa sohalar singari milliy armiyamizni isloh qilish va uning qudratini yanada oshirish, safdagi yurt o'g'lonlariga qulayliklar yaratish borasidagi e'tiborning amaliy natijasi hisoblanadi.

– Shu dargohning ta'limini oldim, tuzini yedim, – deydi 4-bosqich kursanti Ro'zimuhammad Abdurasulov. – Ishoning, hayotga bo'lgan qarashlarim tubdan o'zgardi. Rejalarim aniqlashdi. Armiyada olib borilayotgan islohotlarni ko'rib, amaliy natijalarini ham his qilib turibman. Komandir va ustozlar kasbiy bilimimizni oshirishga bor salohiyatlarini safarbar etmoqda. Bilsangiz, bu ishonch. Ishonchni oqlash uchun esa bizdan fidoyilik talab etiladi. Ha, bu yerda mardlik bor. Ustozlar uni ham nazariy, ham amaliy tarzda bizga o'rgatadi. Aytishingiz mumkin, mardlikni ham o'rganib bo'ladimi, deb. Shunday, o'rgansa bo'ladi. Armiya ana shuning uchun dovyuraklardan tashkil topgan. Qisqasi, qo'llov, sharoit va intilishni birga, bir maqsadga yo'naltiryapmiz. Muhimi, ertaga qo'shinlar tarkibiga borib, xizmatimizni davom ettirganda bu bilimlar baribir o'z so'zini aytadi. Zotan, maqsadli harakat yuksak natijalarga beshik bo'ladi.

Xulosalar – tajriba mevasi. Universitetda tahsil olayotgan kursantlarning mulohazalari juda o'tkir. Ular har bir bilimdan bir xulosa, har qadamdan bir tajriba, har otilgan o'qdan bir shaylik va xulosa olishga intiladi. Chunki muhit shunday, tarbiya shunday. Bu yo'lda bobolarning izi, mehnati va fidoyiligi bor. Vatan uchun sodiqlik qonga singib, jonga aylansa, demak, muqaddas nafas bilan qorishadi.

Xullasi kalom, universitet eshigidan ta'lim olish uchun kirgan azamatlar 4 yil davomida tanlagan yo'nalishida eng zo'rlari bo'lib yetishadi. Buning uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. O'g'lonlar nafaqat harbiy tayyorgarlikdan ilg'or bo'ladi, balki sport, texnologiya, IT, til va adabiyotdan hatto bir umrga yetadigan saboqlar oladi. Har bir kursant yetuk, intellektual salohiyati yuksak, jismonan chiniquqan hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega professional harbiy kadr sifatida shakllanmaguncha u bilan ishlashda davom ettiriladi.

Bu qat'iy tartib va temir intizom. Boisi Yangi O'zbekistonning milliy armiyasi saflariga faqat sadoqatlilar, yurt tinchligini asrashni hayotining mazmuni deb bilganlar jamlanadi. Ularni o'qitish esa Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining oldiga qo'ygan asosiy va oliy maqsadlaridan biridir.

**Kapitan
Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



Kibersport

ISTALSA, HAR QANDAY MAYDON TAJRIBA BERADI

Axborot texnologiyalari va raqamli platformalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda kibersport nafaqat yoshlar o'rtasidagi ommabop mashg'ulotga, balki insonning mantiqiy va strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim vositaga aylanib ulgirdi.

Kibersportning bu xususiyatlari uning harbiy sohadagi ahamiyatini ham tobora oshirmoqda. Zero zamonaviy harbiy xizmatchi uchun jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda, tezkor fikrlash, vaziyatni tahlil qilish, qisqa vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilish va jamoa bilan hamjihatlikda harakatlanish ko'nikmalari ham suv va havoday zarurdir.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida kibersport, dron va robot texnologiyalari yo'nalishidagi sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori zamonaviy harbiy xizmatchilarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishda tarixiy qadam bo'ldi.

Mazkur hujjatga asosan, milliy armiyamizda kibersport, dron va robot texnologiyalarini ommalashtirish tizimi yaratilmoqda. Muntazam o'tkazilayotgan musobaqalar orqali iqtidorli harbiy xizmatchilarni saralash, ularni professional kibersportga yo'naltirish hamda axborot texnologiyalari sohasi uchun salohiyatli kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu tashabbus doirasida Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qismlarda "Harbiy qism komandiri kubogi" uchun kibersport musobaqasining dastlabki, harbiy qism bosqichi o'tkazildi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur musobaqa shunchaki kompyuter o'yini emas, balki ishtirokchilarning muhim qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadigan o'ziga xos jangovar maydonga aylandi. Bahslar davomida har bir jamoa o'zining strategik fikrlashi, tezkor qaror qabul qilishi, vaziyatni to'g'ri baholay olishi hamda jamoaviy birdamligini amalda namoyon etdi.

Vaziyat har soniyada raqib tomonga og'ishi mumkin. Shu bois qatnashchi bor imkoniyatini, tajribasini ishga solib g'oliblikka intildi. Chunki bir soniyalik ikkilanish butunlay vaziyatni o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu bois jamoa a'zolari bir-birining harakatini hushyorlik bilan kuzatib, holatni tahlil qilgan holda keyingi qadamni oldindan rejalashtirishga intildi. Bu jarayon harbiy xizmatdagi azaliy haqiqatni yana bir bor isbotladi: guruhda har bir harbiyning harakati umumiy natijaga bevosita ta'sir qiladi.



Qizg'in jarayonlarda kimdir tashabbusni o'z qo'liga oldi, kimdir safdoshining xatosini to'g'riladi, yana kimdir kutilmagan vaziyatda eng maqbul yechimni topa oldi. Murosasiz kechgan bahslarda hamma yetakchilikka intildi. Ishtirokchilarning faolligi, taktik yondashuvi va uyushqoqligi bellashuvlarga yanada shiddat bag'ishladi.

Ma'lumki, kibersportda faqatgina texnik mahoratning o'zi kamlik qiladi. Ishtirokchi vaziyatni tez anglashi, raqibning keyingi qadamini taxmin qilishi, jamoasi bilan hamohang harakatlanishi va eng muhimi, kuchli bosim ostida ham sovuqqonlik bilan to'g'ri qaror qabul qilishi shart. Bu sifatlar real vazifalarni bajarishda nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu

mo'ljalga olib, natija ko'rsatsa, demak u merganlik mahoratini oshirgan hisoblanadi. Ammo bir vaqtda ham dushmanga tashlansa va yana tezkor harakat qilsa, sherigini himoya qilsa, zarur holda vositalardan foydalansa – garchand kompyuterdagi raqibga qarshi tursa-da, – bular ham chin mahoratni oshirishga xizmat qiladi. Ha, shunday. Chunki kishi istasa, har qaysi qadamidan ham tajriba orttiradi.

Mayli, ularni qo'ying. Gapni kelgan joyidan davom ettiraman. Demak, ushbu bellashuvlarni oddiy kompyuter o'yinlari turniri sifatida qarash yangilish tasavvuridir. Aslida unda zamonaviy texnologiyalar, harbiy tayyorgarlik va jamoaviylik tushunchalari o'zaro mukammal uyg'unlashgan. Bugun kompyuter

ekrani qarshisida strategik qaror qabul qilayotgan va raqamli muhitda safdoshi bilan yelkama-yelka harakatlanayotgan harbiy xizmatchi bugun texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan real harbiy sohada o'z bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llay oladi. Shu bois bunday musobaqalarni muntazam o'tkazish harbiy xizmatchilarning zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy tafakkurini charxlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va eng muhimi, jamoaviy hamkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ha, zamonaviy armiyada kuch faqat qurol-aslaha yoki texnika bilan o'lchanmayapti. Aksincha, qudratli armiya bilimli, zukko, yuksak texnologik salohiyatga ega va bir maqsad yo'lida jipslashgan shaxsiy tarkibdan iborat bo'ladi. Toshkent harbiy okrugidagi harbiy qismlarda o'tkazilgan mazkur musobaqalar ana shu buyuk maqsad sari tashlangan yana bir dadil qadam hisoblanadi. Chunki raqamli maydonda kechgan bellashuvlar ertangi zafarlar uchun tajriba, mahorat va ishonch maktabiga aylanishi shubhasiz.

**Kapitan
Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**



Kapitan Abdulaziz YO'LDOSHEV

ma'noda, ushbu musobaqa harbiy xizmatchilarda muayyan intellektual va psixologik ko'nikmalarni toblashga xizmat qildi.

Ma'lumotlarimdan zerikmayapsizmi? Chunki bu yo'l ham asl maqsadga – poligonda toblanib, Vatan tinchligi himoyasida sobit turishga zamin yaratadi. Nega deysizmi? Hozir uni ham aytaman. Masalan, o'quvlarda ishtirok etgan o'g'lon quroli bilan nishon markazini



“Vatanparvar” xronikasi

ARMIYA: KECHA VA BUGUN

Vaqt oliy hakam. U ba’zi muammolarni ortda qoldirib, yangi marralarni ochsa, ezgu qadriyatlarni hech qachon o’zgartirmaydi. Mazkur suhbat 1992-yilda yurtimiz o’z mustaqilligining ilk davridagi o’ta mas’uliyatli kunlarda yozilgan. Milliy armiyamiz o’tgan o’n yilliklar davomida jiddiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tib, chinakam qudratga ega bo’ldi. O’sha vaqtdagi muammolar, askarlar duch kelgan mashaqqat va sinovlar, mas’uliyatsizlik ortidagi achchiq haqiqatlar aks etgan ushbu suhbat o’ziga xos tarixiy hujjat bo’lish bilan birga, har bir vatandoshimiz uchun muhim bir saboq bo’lib qolaveradi.

VATANGA ISHONCH VA SADOQAT BILAN XIZMAT QILISH KERAK!

“Vatanparvar” gazetasi, 1992-yil 14-oktabr, 220-221-son

O’z davlating Qurolli Kuchlaridagi xizmat doimo sharaflı burch hisoblangan. Bugungi kunda ham ko’plab yoshlar uchun xuddi shunday. Ammo so’nggi paytlarda askarlarning harbiy qismlarni o’zboshimchalik bilan tashlab ketish holatlari ko’payib ketganini ham aytib o’tish kerak. Qoraqalpog’istondan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yigitlar ham bundan mustasno emas. Ana shunday salbiy holatlar sabab Qurolli Kuchlarga navbatdagi chaqiruv arafasida “Becmu Каракалпакстана” gazetasi muxbiri Qoraqalpog’iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig’i polkovnik M. Utaganov va Nukus garnizoni harbiy prokurori Y. Korbolin bilan suhbatlashdi.

Muxbir:

– So’z sizga, Mahmudjan Inayatovich.

Qochoqlar haqida nimalarni aytib bera olasiz?

M. Utaganov:

– Avvalo, shuni aytish kerakki, aksariyat yigitlarimiz Vatan oldidagi yigitlik burchini vijdonan bajarib kelmoqda. Ularning ota-onalari farzandlari yaxshi xizmat qilayotgani uchun qism komandirlaridan minnatdorlik xatlari olib turishibdi. Qoraqalpog’istonlik ko’plab askarlar intizom, jasorat va matonat borasida o’rnak ko’rsatmoqda. Biroq hammasi ham binoyidek emas. Borgan sayin qism komandirlaridan xavotirli xatlar ko’proq kelyapti.

Farg’onadan kelgan xatlarning birida quyidagilar bayon etilgan: “Qoraqalpog’istondan chaqirilgan askarlarning xizmat joyini o’zboshimchalik bilan tashlab ketayotgani bizni tashvishga solmoqda, – deb yozadi komandir. – Xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish uchun qasamyod qilgan yigitlar hech qanday uzrli sababsiz o’z bo’linmalarini tashlab ketmoqda. Askarlarning yashash joylariga qidiruv guruhları yuboryapmiz. Biroq ota-onalarning o’zi farzandlarini yashirib, ularning harbiy qismga qaytishiga to’sqinlik qilmoqda. Harbiy xizmatchilar yashaydigan joylardagi mahalliy hokimiyat organlari qochoqlarni qaytarishda amaliy yordam bermayapti, qidiruv haqidagi telegrammalarimizga javob qaytarmayapti. Vatanimiz oldidagi burchini vijdonan bajarayotganlar esa bunday askarlarning qilmishlaridan norozi. Ularning zimmasiga ikki hissa xizmat yuki tushmoqda.

Harbiy qismlarimizda xizmatni o’tash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xohish bo’lsa, bunga o’zingiz ishonch hosil qilishingiz mumkin. Biz respublikada yashovchi askarlarning qaytishiga ko’maklashishingizni iltimos qilamiz”.

Xatda 1992-yilning iyul oyida xizmatni tashlab ketgan B. Bobojanov ismli shaxs tilga olingan. Tabiiyki, u o’zi tug’ilib o’sgan Amudaryo tumani mudofaa ishlari bo’limida muhokama qilingan. Bu haqda quyidagilar ochiqdan: V. Bobojanov xizmat joyidan uch marta qochib ketgan. Birinchi marta – Ulyanovsk shahridan (Rossiya). O’z iltimosiga ko’ra Farg’ona shahriga ko’chirilgan va u yerdan ham ikki marta qochib ketgan. Tumanga qism vakillari kelib, u va ota-onasi bilan suhbatlashgan. Ichki ishlar organlariga ham chaqirgan. Afsuski, ota-onasi o’z o’g’liga hech qanday ta’sir ko’rsata olmagan. Bu haqda garnizon prokuraturasiga xabar qilingan.

Askarlarning xizmat joylarini o’zboshimchalik bilan tashlab ketish holatlari faqat O’zbekistonda emas, balki MDH tarkibidagi boshqa respublikalarda ham tez-tez uchrayapti. Faqat joriy yilning o’zidayoq qochoqlarga nisbatan joylarda bir nechta jinoyat ishlari qo’zg’atildi. Qismlarni o’zboshimchalik bilan tashlab ketgan askarlarning asosiy qismi ular chaqirilgan Nukus, Xo’jayli, Qo’ng’irot, Chimboy tumanlari hissasiga to’g’ri keladi.

Muxbir:

– **Qochoqlarga nisbatan qanday choralar ko’rilmog’da? Askarlar nima uchun qochib ketishyapti? Bu savollarga garnizon harbiy**

prokurori sifatida javob bera olasizmi, Yuriy Serapionovich?

Y. Korbolin:


– Hammamizga ma’lumki, O’zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to’g’risida”gi qonuni mavjud. Demak, u so’zsiz bajarilishi shart. Unga muvofiq harbiy xizmatchi xizmatni qo’mondonlik belgilagan joyda o’tashi lozim. Biroq harbiy xizmatdan bo’yin tovlash holatlari kam emas. Bunday bo’yin tovlashning eng keng tarqalgan ko’rinishi harbiy qismni o’zboshimchalik bilan tashlab ketish bo’lib qoldi. Bunday shaxslarga nisbatan sodir etgan qilmishi uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi amal qiladi: agar askar qismda uch sutkadan ortiq, biroq bir oydan ko’p bo’lmagan muddatda yo’q bo’lsa – bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, agar u ko’rsatilgan muddatdan uzoqroq “sayr qilsa” – uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanadi.

Aytgancha, bu haqda hamma bilishi kerakki, qochoq qo’lga olingunga qadar qidiruv to’xtatilmaydi. Ayrimlar o’ylaydi: qochib ketamiz, vaqt o’tadi, hammasi unutilib, tinchiydi, deb. Hech unday emas. Harbiy qismni o’zboshimchalik bilan tashlab ketish va dezertirlik yuristlar tilida davom etuvchi jinoyat hisoblanadi: qochoqlarni qidirish to’xtamaydi. Askar qancha uzoq yashirinsa, jazo ham shunchalik qattiq bo’ladi.

Endi qochish sabablari haqida. Ular turlicha. Birinchidan, ayrim askarlar jismoniy tayyorgarligi pastligi sababli og’ir yuklamalarga, harbiy intizomning qat’iy qoidalariga dosh berolmaydi. Ular armiyadagi xizmatga na ma’naviy va na jismoniy jihatdan tayyor emas. Bunda esa hammaning – oila, maktab, texnikum, PTUning umumiy aybi bor... Xizmatdan bo’yin tovlashga hamon uchrab turadigan nizomlarga zid munosabatlar, kazarmadagi axloqsizlik, bezorilik holatlari ham sabab bo’lmoqda. Qismlarda bunday salbiy illatlarga qarshi murosasiz kurash olib borilmoqda.

Harbiy prokuratura faol choralar ko’rmoqda. Biroq qismni o’zboshimchalik bilan tark etish holatlarining aksariyat sabablari hech qanday mantiqqa to’g’ri kelmaydi. Axir sog’lom fikrdagi odam “hamma qochyapti, men ham qochdim”, “yaqinlarimni ko’rgim keldi”, “xizmat qilishdan zerikdim”, “sevgilimning oldiga ketdim” kabi vajlarni jiddiy qabul qilishi mumkinmi?

“Meni xafa qilishgani uchun qochdim!”, “Onamning kasalligi haqida xat olganim uchun ketdim” kabi bahonalar ham uchrab turadi. Bunda askar o’z qism komandiriga murojaat qilmagan,



sodir bo’lgan voqea haqida unga hisobot bermagan. Jismoniy tahqirlanishga kelsak, askarning o’zini himoya qilish huquqi borligini, u komandirga yoki asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo’lgan harbiy prokuraturaga murojaat qilish huquqiga ega ekanini bilishi shart. Ba’zan askarni qismni tashlab ketishga ota-onalarning o’zlari undagan holatlar ham uchraydi, jumladan I. Po’latov bilan sodir bo’lganidek, askarning o’zi tergov jarayonida shunday ko’rsatma bergan. Natijada u ikki oydan ortiq vaqt davomida yurgan. Hozirda u jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Muxbir:

– **Qidiruvda bo’lgan askar o’z qismiga qaytib, u yerdagi xizmatini davom ettirishi mumkinmi?**

Y. Korbolin:

– Albatta. Barcha holatlar, sabablar hisobga olingan holda ularni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin. Askar qismdan qisqa muddatga yo’q bo’lgan holatlarda qonun bunga imkon beradi. Biroq, avvalo qochoq mudofaa ishlari bo’limiga, militsiyaga yoki hokimiyatga kelib, xizmatni davom ettirish istagi borligi haqida murojaat qilishi kerak. Uning murojaati tashrif buyuruvchilarni qabul qilish kitobida qayd etilishi lozim. Murojaat harbiy xizmatdan bo’yin tovlash holatini to’xtatishning yuridik hujjati hisoblanadi. Shundan so’ng u yo’llanma olib, o’z vaqtida harbiy qismga qaytishi shart.

Ba’zida uyiga kelgan ayrim askarlar o’z qilmishini anglab yetib, harbiy prokuraturaga, bo’limga yoki mudofaa ishlari boshqarmasiga xizmatini boshqa qismga o’tkazishni so’rab murojaat qilishadi va masalaning ular xohlagan tarzda hal bo’lishidan umid qilishadi.

Ko’chirish, ta’til berish, ayrim huquqbuzarliklarni bartaraf etish masalalari faqat xizmatni o’tash joyidagi qism komandiri tomonidan hal qilinishi mumkin, lekin hech qachon yashash joyi bo’yicha hal qilinmaydi. Askar xizmatdan bo’yin tovlab, qismga qaytmaguncha yoki qo’lga olinmaguncha uni boshqa joyga o’tkazish, uni haqorat qilganlarga nisbatan chora ko’rish, huquqlari buzilganligi holatlarini tekshirish haqida gap ham bo’lishi mumkin emas.

Muxbir:

– **Mahmudjan Inayatovich, yana sizga murojaat qilaman. Qurolli Kuchlarga kuzgi chaqiruv yaqinlashmoqda. Chaqiriluvchilarga, ularning ota-onalariga nimalar degan bo’lardingiz?**

M. Utaganov:

– Men, birinchi navbatda, chaqiriluvchilarning ota-onalariga murojaat qilmoqchiman. Siz farzand tarbiyaladingiz, ular har bir so’zingizga quloq tutishadi. Shunday ekan, farzandlaringiz qalbiga yetib boradigan harbiy sharaf, mardlik, qahramonlik haqida muloyimlik va ochiqlik bilan gapiring. Bunday munosabat armiya hayotining barcha qiyinchiliklarini yengib o’tishlarida yordam beradi.

Yoshlar, sizga katta avlodning jasoratlariga munosib avlod bo’lishingizni tilayman.

Barchangizga omad, bo’lajak jangchilar!

Furqat ERGASHEV tayyorladi.



Surat tahririyat arxividan olindi

Millat fidoyilari



BOLALIK ORZUSIDAN QAHRAMONLIKKACHA...

Bolaligida samo uzra parvoz qilayotgan samolyotga ergashib, ortidan yugurmagan bola bo'lmasa kerak. Maktab darslarida "Kim bo'lasan?" degan savolga sinfning ko'pchiligi "Uchuvchi bo'laman", deb javob beradi. Shu jumladan, kamina ham bulutlar oralab, osmon uzra parvoz qilishni orzu qilganlardanman.

Tayoqlarga mato yopishtirib, yelkamizga qanot qilib yugurib yurganimiz ham, uchish orzusi bilan devorga chiqib, sakrab, oyog'imizni mayib qilib olganlarimiz ham shundoqqina ko'z oldimda turibdi. Borini aytganda, hozir ham uchishni juda yaxshi ko'raman. Lekin alamlisi, na men, na do'stlarim bu kasbning boshini tutdik. Ko'ngilning bir chetida chang bosib qolgan orzuning endilikda nafasi ham chiqmay qoldi, desam ham bo'ladi.

Bugun men sizlarga so'zlab beradigan qahramonim esa bolalik orzusining ijobati uchun jon berib kurashgan, Vatanning chinakam farzandi – Nariman Abkelyamov haqida.

U hamma bolalar kabi samo uzra uchayotgan samolyotlarga termilib qolar, ortidan yugurganicha quvonardi. Uxlaganda tushida, uyg'onganida hushida shu orzu izidan qolmay ergashardi. Narimanni tanigan do'stlari va ustozlari bilan suhbat qurganimizda, daftarlarining burchaklariga, varaqlariga samolyot va uchuvchi suratini chizib o'tirishini eshitib, orzulari ortidan dadil borganiga yana bir bor guvoh bo'ldim. U hamma bolalar kabi bu orzuni orzuligicha qoldirmadi. Ulg'aygani sari orzu maqsadga aylanib bordi.

Nariman 1988-yili o'qishni bitirishi bilanoq, o'zi qiziqqan soha – aviatsiya mexanigi bo'lishni orzu qilgan holda, Viborg shahridagi fuqaro aviatsiyasi bilim yurtiga o'qishga kirdi. 1991-yili aviatsiya bilim yurtini tamomlab, Farg'ona viloyatining Qo'qon aeroportida bort-texnik lavozimida o'z faoliyatini boshladi.

Narimanning ko'nglidagi bir olam orzu-maqsadlar, yoshlikning bitmas-tuganmas g'ayrat-shijoati, ilmga chanqoqligi uni ustozlaridan kasb sirlarini o'rganishga undadi. U malakali

aviatsiya mutaxassisleri safidan joy olish uchun bor kuchini sarfladi. Harbiy qismlarda muhandis-aviatsiya xizmatida, vertolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish guruhining katta texnigi lavozimida xizmatni o'tadi.

Leytenant Nariman Abkelyamov O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida vertolyot eskadrilyasining aviatsiya bort-texnigi lavozimida o'z xizmatini davom ettiradi. U o'ziga birlashtirilgan harbiy texnikalarga alohida e'tibor qaratib, ularning hamisha soz holatda bo'lishi uchun vaqtini ayamas edi. Nariman Abkelyamov uchun harbiy xizmat, avvalo oila tinchligi, turmush farovonligi va Vatanni himoya qilish yo'lidagi sharaflari burch hisoblangan.

2000-yili Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida xalqaro terrorchi guruhlariga qarshi olib borilgan harakatlarda dushmanga havodan zarba berish jarayonida harbiy-havo kuchlarimiz o'zining yuqori jangovar qobiliyatini namoyish qildi. Jangovar topshiriqni bajarish vaqtida

talafot ko'rgan va boshqaruvni yo'qotgan vertolyotni Shermuhammad Ashirov so'nggi daqiqalargacha mohirlik bilan boshqardi. Nariman Abkelyamov vertolyot ichidagi barcha jangchilarni havodan talafotsiz va muvaffaqiyatli sakrashlarini ta'minladi. Boshqaruvni yo'qotgan vertolyotni tark etish paytida Nariman Abkelyamov og'ir jarohat oldi. Uning xizmatdoshi Shermuhammad Ashirov esa qahramonlarcha halok bo'ldi.

Nariman o'lim bilan yuzma-yuz kurashdi. Og'ir yaralangan turmush o'rtog'ining ahvolidan xabar topgan Luiza gospitalga borganda, Nariman bir so'zni bot-bot takrorlaganini xotirlaydi: **"Hammasi joyida, men hali ko'p uchaman, men hali ko'p uchaman..."**

Bu so'zlar "Yurtimizga bostirib kirgan yovlarga qarshi kurashish hali tugagani yo'q", degan ma'noni anglatgan edi. Ammo olingan jarohatlar qahramonimizni to'rt oy o'tib, 2000-yil 20-dekabr kuni bu dunyodan olib ketdi.

Nariman Nosirovich Abkelyamov xotirasini abadiylashtirish uchun Shahrisabz shahrida u o'qigan 3-sonli o'rta maktabda byust o'rnatildi. Shu bilan birga, maktabda uning jasorati haqida xotira burchagi tashkil etildi. Avval orzu, keyin maqsad, yakunda esa qahramonlikka aylangan taqdirning bunday hikoyalari odamning etini jimirlatib yuboradi.

Nariman chinakam qahramon edi. U o'z jonidan safdosh do'stlarining hayotini aziz bildi. Barcha jangchilarining vertolyotdan sakrab, omon qolishiga sharoit yaratib berdi. So'ngida esa o'zi og'ir jarohatlanib, hayot-mamot kurashida yerga quladi.

Vatan himoyasida Narimandek yigitlar bor ekan, xalq tinch va osoyishta hayot kechiradi. Bola kulgilari har tomonda yangrab turadi. **Yurtning Narimanlari omon bo'lsin!**

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"



Ma'rifatparvarlar

Mahmudxo'ja BEHBUDIY: MUHTARAM YOSHLARG'A MUROJAAT

Har bir mamlakatda islohot va madaniyat vositalarini yo'lga qo'yish hamda tashabbus ko'rsatish harakati o'sha mamlakat yoshlari tomonidan yuzaga kela boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat ostonasida turgan boshlang'ich maktablar hamda uyg'onish va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot g'ayratli yoshlarning harakati va maorifparvarlar ko'magi bilan vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy ehtiyojimiz bilan bog'liq mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarimizni tayanch va umidgoh tutib, ulardan yordam so'raymiz (*mol-davlati yoki so'zlari bilan millat manfaatiga yordami tekkan ba'zi ulamo va boylarimiz ham yoshlar qatoridadir*).

Muhtaram birodarlar! Barchamizga quyosh kabi ravshan va ayondirki, maktablar taraqqiyotning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har bir millat eng avval boshlang'ich maktablarini zamonaviy tarzda isloh etib, ko'paytirmaguncha taraqqiyot yo'lga kirib, madaniyatdan foydalana olmaydi. Hozirgi madaniyatdan mahrum qolib, sanoat va ma'rifat kuchi bilan qurollanmagan millat esa dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmaydi. "Hayot kurashi" maydonida mutlaqo mag'lub bo'ladi, oyoq ostida eziladi, diniy va iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiriga aylanib, bora-bora millati va diyonatini ham qo'ldan boy beradi. Ana shu yo'llar bilan oxiri yo'q bo'lib ketadi.

Binobarin, yer yuzidagi barcha millatlar o'z farzandlarining boshlang'ich tarbiyasiga va maktablarning har jihatdan intizomli hamda mukammal bo'lishiga ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda barkamol qilib voyaga yetkazadi. Aynan shuning uchun ham boshqa

millatlar kuchli diniy va milliy hissiyotga ega bo'lib, har bir ishda diyonat va milliyatni ustun qo'yadi. Ehtiyoj tug'ilganda esa bu yo'lda bor mol-u jonini fido qilishga tayyor turadilar. Mana, hozirgi urushlar va iqtisodiy raqobatlar diyonat va milliyat hissiyotining natijasidir.

Endi, bizning Turkistonda bunday hissiyotlar qayerda? Modomiki, biz turkistonliklar ilm-ma'rifatdan haqli ravishda foydalanmas ekanmiz, insoniy fazilatlar qanday hosil bo'ladi? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qayerdan bilamiz?

Bizlarda birgina fazilat bor bo'lsa, u ham faqat johillarcha taassubdan iboratdir. Demak, biz hozirgi yuzaki diyonatimizni faqat ana shunday taassub soyasidagina saqlab turibmiz. Lekin bunday taraqqiy etgan asrda ilmsiz, quruq taassub bilan yashab ham bo'lmaydi. Chunki zamonamiz shunchalik kuchli, qisqa fursatda eskirgan noto'g'ri taassublarimizni tomir-tomiri bilan qo'porib tashlaydi. Shuning uchun zamonning xavfli ta'sirlariga qarshi kurasha oladigan yagona narsa bor bo'lsa, u ham ma'rifatdir.

Ma'rifat olishning boshlang'ich bosqichi tartibga solingan maktablar bo'lgani uchun endi biz, Turkiston musulmonlariga boshlang'ich maktablarni ko'paytirish lozimdir. Tabiiyki,

maktab muallimsiz ko'paymaydi. Hozirda esa Turkistonda muallimlar kam bo'lib, ularga bo'lgan ehtiyojimiz juda katta. Chunki bu kunlarda yangi maktab ochishga havas qo'yganlar kundan kunga ko'paymoqda. Muallimlar yetarli bo'lgan taqdirda har yili Turkistonda yuzlab maktablar ochmoq mumkin.

Endi ushbu mushkul vaziyatni nazarda tutib, Turkiston yoshlari muallim tayyorlash chorasini topmoqlari kerak. Agar bugungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni bajarishga bel bog'lasalar, muallim yetkazib berish chorasi ham topiladi. Chunonchi, Turkistonda muallim



tayyorlaydigan maxsus o'qituvchilar kursi (*dorilmuallimin*) bo'lmasa ham, har bir shaharda ta'lim usullaridan xabardor bir-ikki nafar muallim, albatta, bor. Ana shunday muallimlikka intilgan kishilarni ularning huzuriga yuborib, 3-4 oy ichida zamonaviy ta'lim usullaridan xabardor qilish mumkin. Agar farz qilaylik, bu xizmatni mahalliy muallimlarimiz zimmasiga olishmasa, u holda muallimlikka havasmand yoshlarni biroz mashaqqatli bo'lsa ham, to'g'ridan to'g'ri Toshkentga – Munavvarqori janoblarining maktabiga yuborish kerakki, u zot bunday tolibi ilmlarni mamnuniyat bilan qabul qilishlariga ishonamiz.

Mana, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng ustuvor ehtiyoji shulardan iborat ediki, ularni sizlarning nazarangizga havola etdik. Endi g'ayrat sizlardan, muvaffaqiyat esa Alloh dandir.

"Oyina" jurnali,
1914-yil, 41-son, 970-972-betlar



Ilmiy-amaliy anjuman

AJDODLAR TARIXI — BUYUK TARBIYACHI



Tarix millatning xotirasi, ma'naviy tayanchi va kelajak avlod uchun o'ziga xos saboq maktabidir. Ayniqsa, yurt ozodligi va Vatan himoyasi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Ana shunday buyuk siymolardan biri Xorazmshohlar davlatining mard va jasur sarkardasi, yurt ozodligi uchun kurashgan, asrlar osha xalqimiz xotirasida saqlanib kelayotgan Jaloliddin Manguberdidir.

Xorazm viloyatida joylashgan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyda buyuk ajdodimiz merosini chuqur o'rganish, uning harbiy mahorati va jasoratini yosh avlod ongiga singdirish, shuningdek harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy usullarini muhokama qilish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi merosi va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning zamonaviy yondashuvlari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.

Mazkur nufuzli tadbir yurtimizning yetuk olimlari, tarixchilari, ta'lim muassasalari rahbarlari, harbiy ta'lim va tarbiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni bir maydonga jamladi.

Anjumanning asosiy maqsadi Jaloliddin Manguberdining boy tarixiy merosini ilmiy jihatdan o'rganish, uning shaxsiyati va

harbiy faoliyatining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish hamda milliy harbiy an'analarni zamonaviy ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish masalalari yuzasidan fikr va tajriba almashishdan iborat bo'ldi.

Tadbir doirasida tashkil etilgan yalpi majlisda ma'ruzachilar tomonidan sultonning hayoti va faoliyati, uning Vatan himoyasi yo'lidagi jasorati, sarkardalik mahorati hamda murakkab tarixiy sharoitda qabul qilgan qarorlari haqida atroflicha fikrlar bildirildi.

Ishtirokchilar ta'kidlaganidek, Jaloliddin Manguberdi obrazi bugungi avlod uchun shunchaki tarixiy shaxs emas. U mardlik, jasorat, matonat, Vatanga sadoqat va ozodlik uchun kurash ramzidir. Uning hayotidagi har bir voqea, har bir harbiy yurish va qabul qilgan qarorlarini o'rganish orqali yosh avlodga yurt taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirish, ularni qiyinchiliklar oldida dovyurak va qat'iyatli bo'lishga undash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, anjumanda Jaloliddin Manguberdi shaxsiyatiga tarixiy



va zamonaviy yondashuvlar keng muhokama qilindi.

Anjumanda Jaloliddin Manguberdining harbiy mahorati va taktikasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Uning jang maydonidagi jasorati, vaziyatni to'g'ri baholay olishi, harbiy kuchlarni oqilona boshqarishi va murakkab sharoitlarda ham maqsad sari intilishi bugungi harbiy ta'lim nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi.

Shuningdek, Xorazmshohlar davlatining tarixiy taraqqiyoti, o'sha davrdagi harbiy tizim, milliy harbiy meros va armiya an'analari xususida ham ilmiy fikrlar bildirildi.

Zamonaviy harbiy ta'lim faqat texnik bilim va amaliy ko'nikmalar bilan cheklanib qolmaydi. Harbiy xizmatchining ma'naviy-ruhiy tayyorgarligi, tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlarga hurmati va Vatanga sadoqati ham uning kasbiy salohiyatini belgilaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Anjumanda zamonaviy ta'lim jarayonida tarixiy merosdan

foydalanishning yangi usullari, yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish hamda harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi. Ayniqsa, harbiy akademik litseylarda tahsil olayotgan yoshlarni milliy harbiy tarix bilan yaqindan tanishtirish ularning kelgusi kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutishi urg'ulandi.

Ha, ushbu tadbir nafaqat tarixiy merosni keng targ'ib qilish, balki olimlar, mutaxassislari va ta'lim sohasi vakillari o'rtasida ilmiy muloqot o'rnatish uchun ham muhim maydon bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan bildirilgan fikr va takliflar kelajakda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Polkovnik
Odil ANARBAYEV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universitetining Shimoli-
g'arbiy harbiy okrug
fakulteti boshlig'i**



Tarixingdir ming asrlar...

“KOFIR QAL’A” NOMINI OLGAN



Xo'jayli tumanining g'arbiy chekkasi. Ko'z o'ngimizda qadimiy Mizdakxon shahri yastanib yotibdi. Bir qarashda yemirilib borayotgan nuroniy tepaliklar, ko'hna devorlar tuproq bag'riga singib ketgan xarobalardek ko'rinadi.

Miloddan avvalgi IV–III asrlarda paydo bo'lgan ushbu shahar xarobalari bugungi kunda turli nomlar bilan ataladi: **“Xo'jayli Govur qal'asi”**, xalq tilida **“Bevafolar qal'asi”**, yana bir manbada esa **“Kofir qal'a”**.

Qal'aning nega shunday atalishiga bir qancha qarashlar bor. Ilmiy izlanishlarda **“Govur qal'a”** miloddan avvalgi I mingyillikning o'rtalaridayoq paydo bo'lgani va milodiy XI asrga qadar **Mizdakxon** deb atalgani qayd etiladi. Zardushtiylilik dinining bosh xudosi Axura Mazda nomi qal'aning shunday atalishiga asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

Biroq tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, **“Mizdakxon”** toponimiga Axura Mazdadan ko'ra, Mazdak ismining asos bo'lgani ehtimoli yuqoriroqdek ko'rinadi. Mazdak ibn Hamdodon (*milodiy 470–529-yillarda yashagan*) dastlab otashparastlarning diniy maskanlaridan birida, keyinchalik esa Erondagi bosh kohin (*diniy*

rahbar) lavozimida faoliyat yuritgan. U asos solgan ta'limot keyinchalik mazdakiylik nomi bilan tarixga kirdi.

Xullas, qarshimizda Mizdakxon nomi bilan ataluvchi qadimiy qabriston va arxeologik inshootlar majmuasi. Ikki yuz gektar maydonni egallagan ushbu qadamjoda ko'hna qabristonlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari **2400-yillik tarixga ega.** Biz haqli ravishda Mizdakxon turbatini Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va yirik qabristonlardan biri deyishimiz mumkin.

Qadim zamonlardan beri bu joy o'zining sirliligi bilan ko'plab ziyoratchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Majmuadagi so'nggi dafnlar esa XIV asrga to'g'ri keladi.

Mizdakxon tarixini mazdakiylik ta'limoti bilan bog'lovchi ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. Kitoblarda mazdakiylikning Xorazmda keng tarqalgani, hatto arablar kelganidan keyingi bir necha asr davomida ham



mahalliy aholi Mizdak ta'limoti ta'sirida yashagani haqida ma'lumotlar uchraydi. Arablarga qarshi ko'tarilgan bir necha qo'zg'olonlarga ham mazdakiylik sabab bo'lgani qayd etiladi.

Demak, biz turgan joy qabrlar va xarobalar orasida shunchaki bir arxeologik majmuada emas, balki bir vaqtlar diniy, siyosiy va madaniy hayotning muhim markazlaridan biri bo'lgan ulkan tarixiy obidadir.

ANTAKIYANING ILMIY ASOSLARI

Antakiya, keyinchalik Mizdakxon deb atalgan bu manzil o'rta asrlarda Xorazm mamlakatining eng yirik qal'alaridan biri bo'lgan. 709-yilda Xorazmshoh Chag'onning inisi Xurozod bir qancha o'ziga sodiq kishilari bilan Mizdakxon qal'asini makon tutib, shu yerda yashagani va podsholikka da'vo qilgani haqida ma'lumotlar bor. (Manba: *“Istoriya Xorezma s drevneyshix vremen do nashix dnei”* kitobi).

Mizdakxon haqidagi ma'lumotlar arab sayyohlari va tarixchilarining asarlarida ham uchraydi. X asr tarixchisi Al-Istaxriy: **“Mizdakxon qal'asi Urganchdan ikki farsax**

yerda joylashgan”, deb yozadi.

Bir farsax 6–7 kilometrga teng bo'lganini hisobga olsak, bu ma'lumot qal'aning o'sha davrdagi geografik o'rnini tasavvur qilishga yordam beradi.

Arab olimi Maqdisiy esa X asrning ikkinchi yarmida Mizdakxon qal'asi atrofida 12 ming qo'rg'on bo'lgani haqida ma'lumot qoldirgan.

Bu raqamning o'ziyoq Mizdakxon atrofida bir vaqtlar qanday ulkan va zich aholi manzilgohlari tizimi mavjudligini tasavvur qilishga majbur etadi.

1981-yili *“O'zbekiston”* nashriyotida chop etilgan *“Sayyoh olimlar”* kitobida Beruniy asarlariga tayangan holda, X asrlarda Amudaryodan Sariqamish tomon oqqan daryoning *“Mazduvast”* deb atalgani haqida ma'lumot keltiriladi.

Olim G. Xo'janiyozov va boshqalarning yozishicha, 1349-yili, ya'ni Oltin O'rda davrida tuzilgan bir xabarnomada ham Mizdakxon qal'asi tilga olingan. Biroq Mizdakxon tarixining keyingi qariyb uch asri haqida yozma manbalarda ma'lumot uchramaydi. Qal'a go'yo tarix sahnasidan bir muddat g'oyib bo'ladi.



KO'HNA MIZDAKXON MAJMUASI



Faqat XVII asr o'rtalariga kelib, Xorazm podshosi Abulg'oz Bahodirxon o'zining "Shajarayi turk" asarida Mizdakxon haqida yana bir muhim ma'lumot qoldiradi:

"Mizdaqxondan Boqirgongacha tutash Qo'shin degan yergacha bug'doy ekanligi edi... O'tliq odam o'n kunda bug'doyning sirtidan aylanib kela olmasdi".

Bu so'zlar esa bizga bugungi xarobalar o'rnida bir vaqtlar ulkan hayot qaynaganini tasavvur qilish imkonini beradi. Bugun biz boqib turgan vayrona qumtepalliklar, qabrlar o'rnida bir vaqtlar qal'alar, qo'rg'onlar, ekinzorlar va odamlar yashagan ulkan turarjoylar bo'lgani haqiqatga ancha yaqin.

GOVUR QAL'A – ANTIOXIYA XAROBALARINING UCHINCHI NOMI

Govur qal'a asrlar davomida nomini bir necha bor o'zgartirgan qadimiy Antioxiya xarobalarining so'nggi uchinchi nomi. Qal'a miloddan avvalgi III asrlarda Antiox tomonidan chegara posti sifatida qurilgan va Antioxiya deb atalgan. Keyinchalik milodiy VI–VII asrlarda mazdakiylar ta'limoti ta'sirida Mizdakxon nomini olgan. Nihoyat, keyingi davrlarda bu hududda muqim yashagan turkiy xalqlar unga Govur qal'a nomini bergan.

Xo'sh, "Govur qal'a" nomi qanday paydo bo'lgan? Ma'lumki, arablar zardushtiylik diniga sig'inuvchilarni, umuman, islom diniga ishonmaganlarni "kofir" deb atagan. Keyinchalik bu atama islom dinini qabul qilgan boshqa xalqlar tilida ham qo'llana boshlagan.

Shuning uchun Mizdakxon xarobalari **"burungi qalmoqlarning qal'asi", "o'tga sig'inuvchilar qal'asi"** bo'lgani haqidagi afsonalar aynan shu davrlarda xalq orasida shakllangani, "Govur qal'a" atamasi ham shu muhitda paydo bo'lgani haqiqatga yaqinroqdek ko'rinadi.

Arxeologik tadqiqotlar o'tkazgan olimlar Govur qal'a tarixining madaniy qatlami 10 metrgacha yetishini aniqlagan. Shuningdek, u miloddan avvalgi IV asrdayoq Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmoqlarida joylashgan muhim savdo shahri bo'lgan.

Qazish ishlari davomida bu yerdan ko'p sonli turarjoy binolari bilan bir qatorda, hunarmandlik ustaxonalari ham topilgan. **Demak, bu yer shunchaki harbiy qal'a emas, balki odamlar yashagan, mehnat qilgan, savdo-sotiq qilgan va o'z madaniyatini yaratgan ulkan shahar bo'lgan.**

Rus arxeologi S. Tolstov esa zardushtiylik dini aynan shu hududda paydo bo'lgan va keyinchalik shu yerdan boshqa hududlarga tarqala boshlagan, degan xulosaga kelgan.

712-yilda arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi jangchilar Xorazmga bostirib kirganlarida, zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi shahar aholisi islom qo'shiniga qarshilik ko'rsatgan. Aynan shu davrlarda shahar **"Govur qal'a", ya'ni "kofirlar qal'asi"** deb atala boshlagan, degan qarash mavjud.

Keyinchalik shahar aholisi islom dinini qabul qilgan bo'lsa-da, o'zlarining qadimiy urf-odatlariga sodiq qolishda davom etgan. Shu bilan birga, "Mizdakxon" nomi ham xalq tilida saqlanib qolgan. O'rta asr olimlari o'z asarlarida qal'ani aynan shu nom bilan tilga olganlar.

Oldinda bizni keyingi manzilgohlar kutmoqda...

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar",
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori



"Eng yaxshi kitobxon" tanloviga

SOG'INCHNING OVOZI

Qachon she'r dardi boshga tushdi, bilmayman, qachon bu og'riqlardan huzur tuyganim ham noayon. Balki, beshikdan yuqqandir. Onam bolaligimda ko'p qo'shiq va she'rlar aytib berardi. So'zini tushunmasam ham, ohangiga mahliyo bo'lib o'tiraverardim. Keyin ulg'aygan sari ko'ngil yanada she'riyatga oshno bo'lib bordi.

Javon tepasida bir sehrli kitob turardi. Otam bolalarning qo'li yetmasin, deb uni tepadan tepaga olib yurardi. Tonglar esa shu kitobni qo'lga olib, ovoz chiqarib mutolaa qilardi. Har tong meni shu ovoz uyg'otardi. Otamning yoniga borib o'tirgancha, necha soat bo'lsa, termilib qolardim. Keyin otam meni yelkalariga olib, erkalatardi.

Oradan yillar o'tdi. Bugun oramizda otam yo'q, lekin o'sha kitob hanuz bor. Odamning umri yerda yotgan toshchalik ham emas, deganlari shu bo'lsa kerak. Ertalab ko'rgan toshni kechga qaytishda ko'rishingiz mumkin. Ertalab ko'rgan odamingizni doim ham kechda ko'ravermaysiz.

Lahzalarni, vaqtni ikki narsada ushlab qolishning iloji bor: biri – yozib, biri – suratga olib. Bugun men sizga hikoya qilmoqchi bo'lgan kitob ham o'sha vaqtning chig'irig'idan o'tgan. Va yana ko'plab yillar o'zbek adabiyotining dunyo sahnalarida baralla so'z aytishini ta'minlab turgan shoir Abdulla Oripovga tegishli.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, otam sevib mutolaa qilgan, hech kimga ishonmay, yostig'ining tagida olib yotadigan o'sha sehrli kitob ham xuddi shu muallifga tegishli.

Abdulla Oripov degan daho shoir ijodi bilan o'quvchilik paytlarimda tanishganman. Maktab kutubxonasida uch tomlik, yashil muqovali kitobi bo'lardi. Unisini qo'yib bunisini olardim, bu kitobni berib, u kitobini olardim. Xullas, o'sha yillari kutubxonadan faqat Abdulla Oripov kitoblarini olib o'qiganman.

Eng quvonarlisi, bu hol bir necha bor takrorlangandan so'ng kutubxonachi o'sha kitoblarni menga sovg'a qilib yubordi. Shu-shu kutubxonani ham hadeb bezovta qilmay qo'ydim.

Dalaga mol haydab ketardim, adirlar qo'ynida hayqirgancha, tabiatga she'r o'qirdim.

**Uzoqlarda qoldi tug'ilgan uyim,
Ajib bolaligim qoldi uzoqda.
Qoldi xom paxtaga ko'milgan uyim.
Qoldi singillarim bari yiroqda.
Endi men eslayman ko'zlarimda nam,
O'sha yillarimning otash sehrini.
Qo'msab talpinaman gohi-gohi dam
Munis singillarim ma'yus mehrini.
Shunday paytda o'zing aylagil shafqat,
Singil bo'la qolgil, menga, tabiat.**

Garchi tug'ilgan qishlog'im bag'rida o'ynab-kulib yurgan bo'lsam ham, shoirning o'rniga o'zimni qo'yib olardim. Tezroq ulg'ayish haqida orzu qilib, shaharga o'qishga ketishni, shu his-tuyg'ularni rasmana tuyishni istardim.

Bugun ishxonam derazasidan mo'ralab turgan daraxtlar, tabiatga tushgan ko'zim o'sha otashin bolalik lahzalarini xotirlatdi. She'rning asl mohiyatini ham bugun anglagandayman. Kimnidir sog'intirish va sog'inish unchalik zavqli emasligini tushunib yetgandayman. She'rning qudratiga esa yana bir bor qoyil qoldim.

Shoir kitob qatiga muhrlagan lahzalar shunchaki she'rlar emas, balki qismatning eng shirin parchalaridir.

SOG'INCH

**Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib shodon,
Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.**


**Qismat mayin ichdim – achchiq va taxir,
Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.
Dunyoda odamzod yashamas axir,
Faqat irodasin sinamoq uchun.**

**Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l.
Barcha tashvishlarni unutib shodon,
Qayta olsam edi qoshingga butkul.**

Abdulla Oripov she'rlarini bugun qayta varaqlab o'qir ekanman, she'rlar xuddi mening ko'nglim bilan o'ynayotganga o'xshaydi. Yuqoridagi she'rdan keyin sahifada duch kelganim mana bu she'r sog'inchni yana battar kuchaytirib yubordi. Barcha tashvishlarni ortda qoldirib, qishloq tomon jo'nab ketishni istab qoladi odam.

"Adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l" misrasining go'zalligini qarang! "Yolg'izoyoq" so'zini xayolimda Abdulla Oripov o'ylab topgandek. Bu topilma she'rga ko'chganda ikki-uch barobar kuchayganining guvohi bo'lasiz.

**Olis adirlar yoqalab yurar ekansiz,
odamlar adir yoqasida bir odam yuradigan
yo'l yaratadi.** Umuman, tog'li-toshli yo'llarni



kesib o'tish uchun ham, istab-istamay yo'l solib qo'yishadi. Shoirning nazari o'tkirligi esa shu yerda ko'rinadi: she'riyatda bu hodisani Abdulla Oripovdan avval she'rga solgan odam bo'lmasa kerak. Bir qarashda go'zal lirik ko'rinish kasb etgan bu she'r aslida ulkan dard-u armonlarni o'zida mujassam etgan. Qismatning achchiq va taxir azoblari qarshisida mardona borayotgan odamning ko'ngil yig'isidir bu she'r.

She'rning so'ngida ham birinchi kupletdagi misralar takrorlanganga o'xshaydi. Ammo birgina so'zning almashishi orqali she'rning kuchini butunlay o'zgartirib yuborgan, desam, adashmayman. Endi ortga yo'l yo'qligidan nadomat chekayotgan odamning iqrirlari. Buni tushunish uchun sog'inish, sevish kerakdir, balki.

She'r esa hammaning dardi, hammaning sog'inchi. Bekorga "xalq shoiri" deyishmaydi. Bu unvon xalq dardi, armoni bilan og'rigan odamniki. Shoirning dardi ham, huzuri ham shunda.

U sizga begona qismat haqida so'zlaydi-yu, oxir-oqibat o'zingizning qismatingizni anglatadi. Shoir kecha yozgan satrlar bugun sizning yuragingizda yangidan tug'iladi. Shuning uchun ham chin she'r eskirmaydi. U faqat kutadi – siz ulg'ayishingizni, sog'inishingizni, yo'qotishingizni va bir kuni uning ma'nosini yuragingiz bilan tushunishingizni.

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**

AMIR TEMUR MEROSI — YOSHLAR ONG-U SHUURIDA

Amir Temur nafaqat yirik harbiy sarkarda, balki kuchli markazlashgan davlat asoschisi, adolatli boshqaruv tizimini yaratgan siyosatchi va ilm-fan hamda madaniyat homiysi sifatida jahon tarixida munosib o'rin egallaydi. Uning faoliyatida intizom, adolat, fidoyilik, strategik tafakkur va bunyodkorlik g'oyalari ustuvor bo'lgan.



Amir Temurning davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyillari "Temur tuzuklari" asarida o'z aksini topgan. Ushbu asarda rahbarning mas'uliyati, qonun ustuvorligi, halollik, xalq manfaatini himoya qilish va mamlakat ravnaqi uchun xizmat qilish kabi g'oyalar ilgari surilgan. Mazkur tamoyillar bugungi kunda ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar ongida milliy g'urur va iftixorni shakllantirishda Amir Temur siymosi alohida o'rin tutadi. Chunki u o'zining qat'iyati, jasorati va yuksak salohiyati bilan nafaqat Movarounnahr, balki butun dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Yoshlar ajdodlarining ulkan bunyodkorlik ishlari, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi bilan tanishar ekan, ularda o'z xalqiga nisbatan faxr va mas'uliyat hissi yanada kuchayadi.

Amir Temurning harbiy iste'dodi va strategik tafakkuri eng yorqin namoyon bo'lgan janglardan biri 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida Usmonlilar davlati sultoni Boyazid I (Yildirim Boyazid) qo'shinlariga qarshi bo'lib o'tgan jangdir. Mazkur jang o'rta asrlar harbiy san'atining eng muhim voqealaridan biri sifatida tarixga kirgan. Unda Amir Temur son jihatidan qudratli va tajribali qo'shinga qarshi nafaqat jangovar mahorati, balki uzoqni ko'ra oladigan sifatidagi salohiyatini ham namoyon etdi.

Jangga tayyorgarlik bosqichidayoq Amir Temur dushmanning kuchli va zaif tomonlarini chuqur o'rgandi. U razvedkachilarni oldindan yuborib, Boyazid qo'shinlarining joylashuvi, harakat yo'nalishlari, suv manbalari va ta'minot yo'llari haqida aniq ma'lumotlar to'pladi. Harbiy yurish davomida qo'shinlarning oziq-ovqat va suv bilan ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa uzoq davom etadigan jang uchun mustahkam zamin yaratdi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur jang maydonini tanlashda ham katta mahorat ko'rsatgan. U qo'shinlarini suv manbalariga yaqin hududga joylashtirib, raqibning suvga bo'lgan imkoniyatlarini cheklashga erishgan. Yozning jazirama issig'ida bu omil Boyazid qo'shinlarining jismoniy holati va jangovar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur qo'shinlarini markaz, o'ng qanot, chap qanot va zaxira qismlariga bo'lib joylashtirdi. Har bir qanot tajribali amirlar boshqaruvida bo'lib, ularning vazifalari oldindan aniq belgilab qo'yilgan edi. Zaxira qo'shinlari esa jangning eng hal

qiluvchi bosqichi uchun saqlab qo'yildi. Bu usul Amir Temurning harbiy san'atidagi eng muhim tamoyillardan biri bo'lib, jang davomida vaziyatga qarab, yangi kuchlarni safga kiritish imkonini bergan.

Jangning dastlabki bosqichida Amir Temur dushmanga to'g'ridan to'g'ri hal qiluvchi zarba berishga shoshilmadi. Aksincha, u Boyazid qo'shinlarini uzoq muddat jang qilishga majbur etdi. Natijada charchoq va suv tanqisligi Usmonli qo'shinlarining jangovar salohiyatini pasaytirdi. Shu bilan birga, Temur qo'shinlarining yengil otliqlari tezkor hujumlar uyushtirib, dushmanning qanotlariga zarba berdi va uning safini izdan chiqardi.

Amir Temurning yana bir muhim strategik yutug'i Boyazid qo'shini tarkibidagi ayrim turkiy bekliklar bilan avvaldan diplomatik aloqalar o'rnatganida namoyon bo'ldi. Tarixiy manbalarda ayrim Anadolu beyliklari jang vaqtida Temur tomoniga o'tgani yoki Boyazidni faol qo'llab-quvvatlamagani qayd etiladi. Bu holat Usmonli qo'shinining ichki birligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, Amir Temurning ustunligini kuchaytirgan.

Jangning eng keskin pallasida Amir Temur uzoq vaqt saqlab kelingan zaxira qo'shinlarini jang maydoniga kiritdi. Bir vaqtning o'zida markaz va qanotlardan uyushtirilgan muvofiqlashtirilgan hujum natijasida Boyazid qo'shinlari qurshov holatiga tushib qoldi. Jang maydonida buyruqlarning tezkor yetkazilishi, qo'shinlarning intizomi va amirlarning o'zaro hamjihatligi g'alabani asosiy omillaridan biri bo'ldi.

Sulton Boyazid jang oxirida asirga olindi. Ushbu g'alaba Amir Temurning shaxsiy jasoratidan ko'ra, ko'proq uning strategik tafakkuri, puxta rejalashtirish qobiliyati va harbiy boshqaruv tizimining mukammalligini namoyon etdi. Anqara jangi o'rta

asrlar harbiy tarixida strategiya va taktikaning yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur tarixiy voqeadan yoshlar uchun muhim xulosalar chiqarish mumkin. **Birinchidan**, har qanday murakkab vaziyatda muvaffaqiyat tasodif emas, balki puxta tayyorgarlik, bilim va intizom mahsuli ekani namoyon bo'ladi. **Ikkinchidan**, Amir Temur harbiy yurishlarida kuchdan tashqari aql, diplomatiya, sabr-toqat va uzoqni ko'ra bilish fazilatlariga tayangan. **Uchinchidan**, qo'mondonning muvaffaqiyati uning qo'l ostidagilar bilan o'zaro ishonchi, mas'uliyati va tartib-intizomni ta'minlay olishiga bog'liq ekani yaqqol ko'rinadi.

Amir Temur nomi tilga olinganda, odatda, uning zabardast sarkardaligi va bunyodkorlik faoliyati yodga olinadi. Biroq buyuk sohibqironning davlat boshqaruvi, rahbarlik madaniyati va inson kamoloti haqidagi qarashlari mujassam bo'lgan "Temur tuzuklari" asari ham beqiyos ma'naviy merosdir. Ushbu asarda ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, halollik va mas'uliyat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

"Temur tuzuklari"ning asosiy mazmuni davlatni adolat bilan boshqarish, ilmiy va halol insonlarni qadrlash, intizomni mustahkamlash hamda xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo'yish tamoyillariga asoslanadi. Amir Temur shunday degan: "Kuch – adolatda". Ushbu hikmatli ibora asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda davlatning qudrati zo'ravonlik yoki qo'rquvda emas, balki qonun ustuvorligi, adolat va xalq ishonchida ekani ifodalangan.

Bugungi kunda ham yoshlarda adolat tuyg'usini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Adolatli fikrlaydigan, halol mehnat qiladigan va Vatan manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yadigan yoshlar har qanday

jamiyatning tayanchidir. Shu jihatdan Amir Temurning hayoti va faoliyati yoshlar uchun nafaqat tarixiy bilim, balki hayotiy ibrat maktabidir.

Shuningdek, "Temur tuzuklari"da intizom masalasiga alohida e'tibor berilgan. Amir Temur qo'shinidagi har bir askar o'z vazifasini aniq bilgan, buyruqlarga so'zsiz amal qilgan va umumiy maqsad yo'lida harakat qilgan. Bugungi yoshlar uchun ham intizom, vaqtini qadrlash, mas'uliyat va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari muvaffaqiyatning muhim omilidir.

Bilamizki, "Temur tuzuklari"da ilgari surilgan adolat, halollik, ilm-ma'rifat, rahbar mas'uliyati va xalqparvarlik tamoyillari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma'naviy asoslari bilan hamohangdir. Shu bois Amir Temur merosini chuqur o'rganish, uni ta'lim-tarbiya tizimiga keng joriy etish va yoshlar ongiga singdirish milliy taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Milliy g'urur – ajdodlarimiz yaratgan buyuk tarixni anglashdan, milliy iftixor esa ana shu tarixga munosib avlod bo'lishga intilishdan boshlanadi. Sohibqiron Amir Temur qoldirgan boy ma'naviy va siyosiy meros yoshlarni Vatanga muhabbat, tarixga hurmat, xalq manfaatiga sadoqat hamda yuksak maqsadlar sari intilish ruhida tarbiyalashda hamisha yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: **"Buyuk tarixni mard va oliyjanob xalq yaratadi"**. Darhaqiqat, buyuk tarixga ega bo'lgan xalqgina buyuk kelajakni bunyod eta oladi. Ana shunday porloq kelajakni barpo etish esa o'z tarixini chuqur biladigan, ajdodlari merosidan faxrlanadigan, zamonaviy bilim va tafakkur bilan qurollangan yoshlar qo'lida.

Zero sohibqiron Amir Temurning umri va faoliyati bizga bitta buyuk haqiqatni anglatadi: Vatan qudrati qurol bilan emas, avvalo, ma'rifat, adolat, birlik va fidoyi insonlar bilan yuksaladi. Demak, Amir Temur merosini o'rganish tarixni bilish uchungina emas, balki kelajakni bunyod etish uchun ham zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojdir.

Bu meros yoshlar qalbida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otib, ularni Vatan ravnaqi yo'lida sidqidildan xizmat qiladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Podpolkovnik
Ubaydulla SATTAROV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universitetining
Janubi-g'arbiy maxsus
harbiy okrug fakulteti
katta o'qituvchisi**



Armiya – hayot maktabi



KELAJAK BUGUNDAN BOSHLANADI

Bu hali hammasi emas! Shartnoma asosida o'qiydiganlarga foizsiz imtiyozli kreditlar ajratiladi. Oliy ta'lim muassasalariga kirganlarni harbiy fakultet talabalariga tenglashtirish orqali o'qishni tugatgandan so'ng ularga zaxiradagi leytenant unvoni taqdim etiladi. Xizmat burchini o'tash davrida sport musobaqalari va fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan askarlar esa test sinovlarisiz o'qishga qabul qilinadi.

Bundan tashqari, muddatli harbiy xizmatchilarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga yo'naltirish maqsadida "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili asosida 3-6 oylik kasb-hunar kurslari tashkil etilib, barcha hududlarda bu tizim jadal davom etmoqda. Zero bu o'z vaqtida va to'g'ri o'ylangan ezgu tashabbuslardan biri bo'ldi. Bugun ham harbiy xizmatni o'tab, ham kasb-hunar egasi bo'lib ketish nechog'li manfaatli ekanini yoshlar yaxshi anglagan holda imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishyapti.

Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan harbiy qismda yigitlik burchini o'tayotgan yuzlab yoshlar ham bugungi kunda ana shu imkoniyatdan unumli foydalanyotgani quvonarli. Askarlar harbiy qism bazasi hamda Toshkent davlat texnika universitetida avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish mutaxassisligi, chilangar, kompyuter texnikasi operatori, buxgalteriya, avtochilangar, AutoCad dasturchisi, kompyuter grafikasi kabi o'ndan ortiq yo'nalishda o'qitilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, to'garaklarda xorijiy tillarga o'qitish yo'lga qo'yilgani, kitobsevar askarlarning

2026/2027-o'quv yilidan boshlab, muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarga bir qator imtiyoz hamda kafolatlar berilgani milliy armiyamiz va jamiyatimiz o'rtasidagi jipslikni yanada mustahkamlaganini ta'kidlash joiz. Endilikda askarlar xizmat davrida oliygohlarga o'qishga kirib, masofaviy ta'lim olishi, harbiy qismlarda turli kasb egalarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

"Ma'naviyat qalqoni" tanlovida qatnashayotgani, samarqandlik Og'abek Sharipov singari san'atsevar yoshlarning "Impuls" ansambli bilan birgalikda ijod qilayotgani muddatli harbiy xizmat davrining yanada samarali o'tishini ta'minlayapti.

Yangi tartibga muvofiq, harbiy qismda abituriyentlarni tayyorlash kurslari tashkil etilib, askarlar oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirdi. Samarqand davlat universitetida o'qishni niyat qilgan oddiy askar Muhiddin Eshnazarov 149,8 ball to'plashga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, Feruz To'xtaboyev, Ulug'bek Bahodirov, Boburbek Abdullayev singari muddatli harbiy xizmatchilar ham davlat test imtihonlarini yuqori ballarga topshirdi. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarning "Ma'naviyat qalqoni" respublika tanlovida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishi uchun kutubxonada ishga tushirilgan platforma orqali belgilangan adabiyotlarni o'qish imkoniyati yaratib berildi.

Surxondaryolik muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Samandar Xushboqov AT va harbiy xizmatda kerak bo'ladigan kiberxavfsizlik bo'yicha malaka oshiryapti. U yaratilayotgan bugungi sharoitlar yoshlarning armiyaga qiziqishini oshirishga xizmat qilishi haqida ishonch bilan gapirdi.

Farg'onalik Iskandar Sharifjonov – haydovchi; buxorolik Samandar Muhiddinov – mexanik; samarqandlik Firdavs Toshpo'latov

– mexanizator; surxondaryolik Avaz Madaminjonov – texnik xizmat ko'rsatish; buxorolik Ozodbek Qo'ziyev – chilangar kabi kasb egasi bo'lish yo'lida tinmay harakat qilmoqda. Buning uchun ularga Toshkent davlat texnika universiteti o'quv xonalari va tajribali ustozlarning birlashtirilgani jarayonlarning samarali bo'lishini ta'minlamoqda.

–Kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Firdavs Toshpo'latov. – Samarqandning Nurobod tumanini bilasiz, o'sha yerdanman. Mexanizatorlarga talab katta hudud. Shuning uchun xizmat davrim davomida shu kasbni egallashga qaror qildim. O'z kasbiga mehr qo'ygan insongina, u qanday kasb bo'lishidan qat'i nazar, davlatga, jamiyatga, oilasiga foyda keltira oladi. Xizmatdoshlarimga qarab, havasim keladi. Barcha o'ziga kerakli sohada hunar o'rganyapti, oliy ta'lim muassasalariga imtihon topshirishdi. Barakalla, armiyada o'qishga kiribdi, Otasiga rahmat, xizmatga borib, kasb o'rganib kelibdi, degan olqishlarni eshitish kimga yoqmaydi deysiz? Tasavvur qiling-a, bunday imkoniyatlar yaratib berilmaganda, kelajakda minglab yoshlar taqdiri nima kechardi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsam, men kabi yoshlar uchun kelajak bugundan, to'g'rirog'i, muddatli harbiy xizmatga kelgan kunimizdan boshlandi, desam adashmayman...

– Xizmatga kelgunimga qadar chilangarlik kasbi haqida u qadar keng tushunchaga ega emasdim, – deya suhbatni davom ettirdi buxorolik oddiy askar Ozodbek Qo'ziyev. – Toshkent davlat texnika universitetida o'tayotgan mashg'ulotlardan keyin kundalik hayotda eng kerakli kasblardan biri ekanini anglab yetdim. Maxsus dastgohlarda temirga ishlov berish, qaysidir buyum yoki detalni yasash zargarlarning ishiga o'xshab ketar ekan. Xizmatdoshim Firdavs to'g'ri aytdi, kasbning yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Jamiyatda hammasining o'z o'rni bor. Kelajakda kimningdir og'irini yengil qilish, muammosini hal etish uchun qaysi sohada bo'lmasin, tajribali mutaxassis bo'lish talab etiladi. Shu sababli ustozlarning qimmatli o'gitlarini-yu, tajribasini o'rganishga harakat qilyapman...

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, muddatli harbiy xizmatchilarga berilayotgan bu yangi imtiyozlar shunchaki imkoniyat emas, balki yosh avlodga bo'lgan yuksak ishonch ramzidir. Masofaviy ta'lim, imtiyozli kreditlar, kasbiy sertifikatlar va kitobxonlik uchun beriladigan qimmatbaho sovg'alar armiyani haqiqiy "hayot maktabi"ga aylantirmoqda.

Bu islohotlar natijasida butun respublikamiz bo'ylab harbiy xizmatga borish istagidagi yoshlar soni yanada ortishi, armiya saflaridan esa har tomonlama yetuk mutaxassislar yetishib chiqishi, shubhasiz. Endilikda har bir yosh yigit harbiy xizmatga ketar ekan, u yerdan nafaqat jismoniy chiniqib, balki jamiyatda o'z o'rnini topgan, zamonaviy bilim va kasb egasi bo'lgan shaxs sifatida qaytishiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



Bitta askar – bitta kasb

BUGUNGI KO'NIKMA – ertangi imkoniyat

Inson hayotida shunday davrlar bo'ladi, unda olgan birgina saboq, egallogan birgina hunar kelajakdagi butun taqdirini belgilab berishi mumkin. Harbiy xizmat hayot mustaqil, unutilmas hayot maktabi. Bu dargohda yigitlar nafaqat Vatanni himoya qilish, intizom va mas'uliyatni, balki mustaqil hayot uchun zarur bo'lgan kasb-hunarlarni ham egallamoqda.

tadbirkorlik sirlarini o'zlashtirishga intiladi.

Shunday ekan, "Bir askar – bir kasb" tamoyilini shunchaki kasbga o'qitish emas, yosh insonning ertangi kuniga tayyorgarlik deb atash mumkin. Xalqimizda "Bir yigitga qirq hunar ham oz", degan purma'no gap bor. Bu maqolda asrlar davomida shakllangan hayotiy tajriba mujassam. Hunarli inson hech qachon kam bo'lmaydi. Uning qo'lida kasbi,

bilsa, kasbni kelajakka yo'l deb qabul qilmoqda.

Harbiy xizmat insonni intizomga o'rgatadi. Vaqtni qadrlash, berilgan vazifani mas'uliyat bilan bajarish, qiyinchilik oldida ortga chekinmaslik, jamoa bilan ishlash – bularning barchasi keyingi hayotda ham asqatadigan fazilatlar. Agar ana shu fazilatlarga kasbiy bilim va amaliy ko'nikma ham qo'shilsa, yosh insonning imkoniyatlari yanada kengayadi.

Bugun askarlar o'rganayotgan payvandchilik, elektromontyorlik, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, sartaroshlik yoki oshpazlik kabi kasblar ertaga ular uchun ish o'rni, tadbirkorlik faoliyati yoki o'z mehnatini yo'lga qo'yish imkoniyatiga aylanishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari, veb-sayt yaratish, buxgalteriya va menejment kabi zamonaviy yo'nalishlar esa yoshlarni raqamli iqtisodiyot va zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi. Demak, askar bugun o'zlashtirayotgan bir kasb – ertaga uning mustaqil hayotidagi katta imkoniyatning boshlanishi.

Armiya – jasorat va matonat maktabi. Ammo haqiqiy hayot maktabi insonni nafaqat himoya qilishga, balki yaratishga, mehnat qilishga, o'z kelajagini qurishga ham o'rgatadi. "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili ana shu ikki tushunchani – Vatan himoyasi va mehnat tarbiyasini bir nuqtada birlashtirmoqda.

Bugun safda turgan askar qo'lida qurol bilan Vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlansa, ertaga qo'lida kasb-hunari bilan yurt taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

Chunki Vatanga xizmat qilishning shakllari ko'p. Kimdir uni harbiy libosda himoya qiladi, kimdir ustaxonada mehnat qiladi, kimdir tadbirkorlik qiladi, yana kimdir zamonaviy texnologiyalar yaratadi. Ammo ularni bir maqsad – yurtga naf keltirish, halol mehnat qilish va munosib hayot qurish birlashtiradi.

Shu ma'noda, "Bir askar – bir kasb" bugungi askarning ertangi kuniga qo'yilayotgan mustahkam poydevordir. Zero Vatan himoyachisi bo'lish – sharaf. Kasb egasi bo'lish – imkoniyat. Ikkalasini birlashtira olgan yosh esa o'z kelajagining haqiqiy bunyodkoriga aylanadi.

**Podpolkovnik
Ulug'bek FAYZULLAYEV,
harbiy qism komandirining
tarbiyaviy va
mafkuraviy ishlar bo'yicha
o'rinbosari**

Bugun "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda. Uning zamirida oddiy, ammo nihoyatda muhim g'oya mujassam: har bir askar harbiy xizmatni tugatgach, qo'lida faqat xizmat guvohnomasi emas, balki hayotda asqatadigan bir kasb-hunar bilan qaytsin.

Zero Vatan himoyachisi ertangi kuni haqida ham ishonch bilan o'ylashi, o'z mehnati bilan oilasi farovonligiga hissa qo'sha olishi kerak.

Sharqiy harbiy okrugning Namangan viloyati G'urumsaroy tumanidagi harbiy qismlarning birida "Bitta askar – bitta kasb" tamoyili asosida harbiy xizmatchilar uchun mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan turli yo'nalishlarda kasbga o'qitish mashg'ulotlari tashkil etib kelinmoqda.

O'quv dasturidan avtomobil dvigatellarini ta'mirlash chilangarligi, avtomobil shinalariga, elektr jihozlariga hamda yurish qismlariga xizmat ko'rsatish va

ta'mirlash, santexnika ishlari ustasi, kompyuter savodxonligi, axborot texnologiyalari va veb-sayt yaratish, buxgalteriya va tadbirkorlik, sartaroshlik, elektromontyorlik, payvandlash, chorvachilik, xodimlar bilan ishlash bo'yicha menejment, elektr jihozlarini ta'mirlash va oshpazlik kabi 16 ta yo'nalish o'rin olgan.

Muhimi, bu kasblarning har biri nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Chunki kasbni kitobdan o'qib bilish boshqa, uni qo'l bilan bajarib, mohiyatini anglash butunlay boshqa. Askar bu yerda o'z qiziqishi, qobiliyati va kelajak rejasiga mos yo'nalishni tanlaydi. Kimdir avtomobil ta'miriga qiziqsa, yana biri elektr jihozlarini o'rganadi. Kimdir oshpazlik yoki sartaroshlikni tanlasa, yana kimdir kompyuter texnologiyalari, veb-dizayn yoki

qalbida ishonch, ko'zida esa maqsad bo'ladi.

– Payvandchilik yo'nalishini tanlashimga sabab – bu kasbga qiziqishim borligi va kelajakda shu sohada ishlash niyatim. Hozir mashg'ulotlarda payvandlashning turli usullarini, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishni o'rganyapman. Nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulotlar ham bo'layotgani men uchun juda muhim. Harbiy xizmatni tugatganimdan keyin ham shu sohada faoliyat yuritib, o'z kasbimni yanada mukammal o'rganmoqchiman. Menimcha, yigit kishi bir kasb bilan cheklanib qolmasligi kerak. Xalqimiz "Bir yigitga qirq hunar ham oz", deb bejiz aytmagan. Hunar qancha ko'p bo'lsa, imkoniyat ham shuncha ko'p bo'ladi, – deydi oddiy askar Ulug'bek Mansurov.

Ulug'bekning so'zlarida oddiy bir askarning orzusi bilan birga, bugungi yosh avlodga xos intilish ham aks etadi. U xizmatni burch deb

Chegara qo'shinlarida



SARHAD POSBONLARI

xalqaro maydonda zafar quchdi



Armaniston Respublikasining Yerevan shahrida karate-do sport turi bo'yicha nufuzli xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Dunyoning 8 ta davlatidan 850 nafardan ziyod eng sara va mahoratli sportchi ishtirok etgan ushbu bahslarda O'zbekiston terma jamoasi sharafigi munosib himoya qilgan sportchilarimiz yuksak natijalarni qo'lga kiritdi.

E'tiborlisi, xalqaro maydonda Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib, Vatan posbonlarining nafaqat jangovar shaylikda, balki sport sohasida ham beqiyos kuch-qudratga ega ekanini DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari yaqqol isbotladi.

Shiddatli va murosasiz kechgan bellashuvlarda hamyurtlarimizning matonati hamda yuqori tayyorgarligi hakamlar va muxlislar tomonidan yuksak baholandi. Erkaklar o'rtasidagi bahslarda DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi kichik serjant Shomahmud Dalavoyev o'z mahoratini namoyish etib, kata bajarish yo'nalishida mutlaq ustunlik bilan oltin medalni, yakka kurash

(kumite) bahslarida esa kumush medalni qo'lga kiritdi. Ayollar o'rtasidagi qizg'in bellashuvlarda esa II darajali serjant Ma'mura Ashurova o'z raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmadi. U yakka kurash bo'yicha xalqaro turnirning oltin medaliga sazovor bo'lgan bo'lsa, kata bajarish shartida bronza medalni qo'lga kiritib, terma jamoamiz xazinasini boyitdi.

Xalqaro arenada qo'lga kiritilgan ushbu ulkan zafar va harbiy sportchilarning tayyorgarlik jarayonlari haqida musobaqa g'olibi II darajali serjant Ma'mura Ashurova o'z taassurotlari va dil so'zlarini shunday bayon etdi:

– Xalqaro turnirda 8 ta davlatdan kelgan eng kuchli karatechilar bilan kuch sinashish oson bo'lgani yo'q. Vatan sha'ni, qolaversa, DXX Chegara qo'shinlari nufuzini himoya qilish zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklar edi. Biz har bir bahsga xuddi jangovar topshiriqdek yondashdik. Sarhadlarimizni qo'riqlashda ko'rsatiladigan sergaklik, iroda va matonat sport gilamida ham bizga katta kuch va matonat berdi. Oltin medalni qo'lga kiritib, madhiyamiz yangrayotgan lahzada qalbimda cheksiz faxr tuydim. Bu g'alabamizni jonajon Vatanimizga va bizni doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan xalqimizga bag'ishlaymiz. Bundan keyin ham yurtimiz ishonchini oqlash uchun bor kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz.

Bu kabi yutuqlar yurtimizda harbiy xizmatchilarning jismoniy va jangovar shayligini oshirishga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaliy natijasidir. Xalqaro maydonda g'alaba qozonib, davlatimiz ramzlarini ko'klarga ko'tarayotgan sarhad posbonlari el-yurt tinchligini ta'minlashda ham haqiqiy matonat ko'rsatishda davom etaveradi.

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Chegara qo'shinlari

Konferensiya



VATANPARVARLIK

SO'ZDA EMAS — AMALDA...



Vatanga muhabbat qachon uyg'onadi? Balki, bu tuyg'u bolalikdan, ona yurt tuprog'ini ilk bor anglagan kunlardan boshlanar. Uni esa bilim, tarbiya, sport va ezgu maqsadlar bilan yanada mustahkamlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining navbatdan tashqari konferensiyasi aynan shunday muhim maqsadlar yo'lida yangi imkoniyatlarni belgilab oldi. Konferensiyada tashkilot faoliyatini bugungi kun talablari, mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati hamda davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarga moslashtirish masalalari muhokama qilindi. Unda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati, hududiy kengashlar raislari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Konferensiyada tashkilot ustaviga qator o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritildi. Ular orasidagi eng muhim yangiliklardan biri – tashkilotga a'zolik yoshining 18 yoshdan 16 yoshga tushirilgani bo'ldi. Bu oddiy raqamning o'zgarishi emas. Bu – yosh avlodga bildirilgan ishonch, ularga yaratilayotgan yangi imkoniyatlarning ifodasi. Endilikda 16 yoshga to'lgan yigit-qizlar "Vatanparvar" tashkilotining to'laqonli a'zosi bo'lishi mumkin. Ular harbiy-vatanparvarlik tadbirlarida ishtirok etish, texnika va sport sirlarini o'rganish, o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Avtomotosport, o'q otish, triatlon, duatlon, biatlon, modelchilik va radiosport kabi yo'nalishlar yoshlarni

nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki ularda aniqlik, intizom, sabr, mas'uliyat va jamoa bilan ishlash kabi muhim fazilatlarni shakllantiradi.

Vatanga muhabbat faqat balandparvoz so'zlarda emas, balki amaliy harakatlarda namoyon bo'ladi. Texnikani o'rganish, sport bilan shug'ullanish, kasb egallash, intizomli va mas'uliyatli bo'lish ham Vatan oldidagi burchni anglashning bir ko'rinishidir. Shu ma'noda, "Vatanparvar" tashkilotiga a'zolik yoshining 16 yosh etib belgilanishi yoshlarni maktab davridan boshlab faol hayotga, bilim va kasbga, sport va vatanparvarlikka yo'naltirish uchun muhim qadamdir.

Konferensiyada tashkilot boshqaruvi va saylov tizimini demokratlashtirish, moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan yangi normalar ham tasdiqlandi. Tashkilotning yangi tahrirdagi ustavi delegatlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashlari tasarrufidagi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bugun yoshlar oldida imkoniyatlar ko'p. "Vatanparvar" tashkilotining yangi tartibi esa ana shu yo'lida yoshlar uchun yana bir eshikni ochmoqda. Zero Vatanni sevish – uni faqat so'z bilan emas, bilim, mehnat, intizom va fidoyilik bilan ardoqlashdir.

Muhammadali G'AFFOROV
"Vatanparvar"

Targ'ibot

SOXTA AXBOROTLARGA QARSHI IMMUNITET – *davr talabi*

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida "Jaholatga qarshi ma'rifat" loyihasi doirasida "Soxta axborotlarga qarshi immunitet" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

Yoshlar ittifoqi Toshkent shahri hududiy kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda universitetning muddatli harbiy xizmatchilari va kursantlar faol ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan mutaxassislar bugungi globalashuv sharoitida axborot maydonidagi tahdidlar tobora kuchayib borayotganini, ayniqsa soxta xabarlar va dezinformatsiya jamiyat ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidladi. Shu bois har bir fuqaro, ayniqsa yoshlar axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning to'g'riligini tekshirish va faqat ishonchli axborot manbalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarurligi qayd etildi.

Tadbir davomida ishtirokchilarga soxta axborotlarni aniqlash usullari, axborot xurujlarining oldini olish, mediasavodxonlikni yuksaltirish hamda yoshlarni turli buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoya



qilishning amaliy jihatlari yuzasidan tavsiyalar berildi. Ochiq muloqot shaklida o'tgan davra suhbatida kursantlar va harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan atroficha javob oldi. Uchrashuv ishtirokchilarning axborot xavfsizligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish,

Vatan taqdiriga daxldorlik hissin mustahkamlash hamda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitetni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Demak, yolg'on va fitnaga berilmaslik har birimizning fuqarolik burchimizdir. Chunki ma'rifatga tayangan jamiyatgina har qanday axborot xurujiga munosib javob qaytara oladi. Bu esa yurtimizda hukm surayotgan

tinchlik, barqarorlik va hamjihatlik uchun shukronalik tuyg'usini yanada mustahkamlab, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va mas'uliyat hissin yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Podpolkovnik
Alisher AGZAMOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
Axborotlashtirish va
multimedia markazi boshlig'i**

Vatanparvarlik

AJDODLAR MEROSI

yosh avlodga ibrat



ham edi. Uning "Boburnoma" memuari orqali biz Boburning bilimga chanqoqligi, tabiatga mehri va insonparvarligini ko'ramiz. Bobur yoshlarga ilm olish, adabiyot va san'atni qadrlash, yuksak axloq sohibi bo'lish zarurligini anglatadi.

Uning hayoti inson har qanday sharoitda ham orzu va maqsadidan voz kechmasligi kerakligini ko'rsatadi. Bugungi globalashuv davrida yoshlarni turli ma'naviy tahdidlardan asrashda ana shunday buyuk ajdodlar merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning hayoti va faoliyatida vatanparvarlik, matonat, ilmparvarlik, adolat va insoniylik kabi yuksak fazilatlar mujassam. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida ularning hayoti va ijodini keng o'rganish yoshlar ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik qon-qoniga singib ketgan avlodni tarbiyalashda faxrlanishimizga sabab bo'lgan ajdodlarimiz haqidagi rivoyat-u hikoyalar, dostonlar va tarix zarvaraqlarini farzandlarga o'rgatishimiz, singdirishimiz shart! Shijoatli, mard, jasur harbiy o'g'lonlarimiz aynan qo'rqmas ajdodlarning munosib avlodlaridir.

**Podpolkovnik
Vaisboy MADRAHIMOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universiteti
sikli boshlig'i**

Yurtimizda asrlar davomida ne-ne buyuk sarkarda, davlat arbobi va olimlar yetishib chiqmadi deysiz. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning vatanparvarlik borasidagi ibratlari beqiyos.

Bu ulug' ajdodlarimiz nafaqat tariximiz sharafiga, balki bugungi yosh avlod uchun ham yuksak ma'naviyat, jasorat va vatanparvarlik namunasidir. Avvalo, Jaloliddin Manguberdi obrazi yoshlarda

Vatanga muhabbat va jasorat tuyg'ularini shakllantiradi.

U og'ir va murakkab davrda yurtini dushmandan himoya qilish uchun kurashgan, qo'rqmas va mard sarkarda sifatida tarixda qolgan. Uning

jasorati yoshlarga har qanday qiyinchilik oldida sabotli bo'lish, Vatan manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishni o'rgatadi. Ayniqsa, Jaloliddinning ona yurt ozodligi uchun kurashi bugungi yoshlar uchun haqiqiy ibrat maktabidir.

Amir Temur esa adolat, intizom va ilm-fanga e'tibor ramzi hisoblanadi.

U buyuk davlat barpo etib, yurt tinchligi va taraqqiyoti uchun beqiyos islohotlar olib

borgan. "Kuch – adolatda" degan shior bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagani bejiz emas. Amir Temurning davlat boshqaruvidagi oqilona siyosati, ilm ahliga hurmati yoshlarni bilimli, mas'uliyatli va fidoyi bo'lishga undaydi.

Uning hayotidan o'rnak olgan yoshlar o'z oldiga katta maqsad qo'yishni va unga intilishni o'rganadi. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat shoh va sarkarda, balki nozik qalbli shoir va olim

Barkamol avlod

JASORAT

sinovi sari

Yoshlarning jismoniy chiniqishi, irodasi toplanishi va turli sinovlarga ruhan tayyor bo'lib voyaga yetishida "Jasorat maktabi"larining o'rni katta.



o'tib, o'z imkoniyatlarini amalda ko'rsatdi. Har bir talabgorning natijalari belgilangan mezonlar asosida 50 ballik baholash tizimi

orqali xolisona baholandi. Sinovlar jarayonida yoshlarning mashqlarni bajarishdagi faolligi, qat'iyati va o'ziga bo'lgan ishonchi ularning mazkur bosqichga puxta tayyorgarlik ko'rganini yaqqol namoyon etdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda "Jasorat maktabi" Sirdaryo viloyatining 11 ta tuman va shahrida faoliyat olib bormoqda. Har bir ta'lim maskaniga 26 nafardan o'quvchi qabul qilinib, ularning jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ma'naviy-ruhiy jihatdan chiniqtirishga qaratilgan mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Bu galgi saralash jarayoni ham ishtirokchilar uchun o'ziga xos hayot sabog'iga aylandi. Maydondagi har bir mashq, har bir natija yoshlarning nafaqat jismoniy imkoniyatlarini, balki irodasi, qat'iyati va maqsad sari intilishini ham ko'rsatdi. Ayrimlar

uchun bu sinovlar yangi marralar sari qadam bo'lgan bo'lsa, boshqalar uchun o'z ustida yanada ko'proq ishlashga undaydigan muhim tajriba bo'ldi.

Umuman olganda, "Jasorat maktabi"ning asosiy maqsadi faqat jismonan baquvvat yoshlarni tarbiyalash emas, balki yurt taqdiriga befarq bo'lmagan, har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaydigan, mas'uliyatni his etadigan va Vatan himoyasiga tayyor avlodni kamolga yetkazishdan iborat. Bugungi sinovlarda o'zini ko'rsatgan yoshlar kelgusida yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan fidoyi va barkamol avlod bo'lib yetishishi shubhasiz.

**Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati**

Kelajagimiz egalari

MARDLARI ORTIB BORAYOTGAN maktab

Mamlakatimiz bo'ylab "Jasorat maktabi"ga o'quvchilarni qabul qilish imtihonlarining ikkinchi bosqichi yuqori saviyada tashkil etilmoqda.

Xususan, Farg'ona shahridagi 32-sonli umumiy o'rta ta'lim muassasasi – "Jasorat maktabi"ga o'quvchilarni saralashning ikkinchi bosqichi uchun saralash tadbirlari olib borildi.

"Samo" sport majmuasida kechgan jismoniy tayyorgarlik sinovlarida o'quvchilar o'zlarini har tomonlama ko'rsatdi. Bahslar belgilangan tartib asosida, shaffoflik va

xolislik tamoyillariga qat'iy rioya etilgan holda o'tkazildi. Kurashlarda 4-sinf o'quv dasturi talablariga muvofiq, har bir nomzod 5 turdagi jismoniy mashqni bajardi. Bunda o'quvchilarning kuchi, chaqqonligi, chidamliligi hamda umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi baholandi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur jismoniy tayyorgarlik sinovlari respublika bo'yicha

1 664 nafar malakali hakamlar hay'ati tomonidan 50 ballik baholash tizimi asosida amalga oshirilmoqda. Har bir maktab uchun kamida 8 nafardan hakam jalb etilgan bo'lib, baholash jarayonining ochiqqligi va adolatliligi ta'minlanyapti.

E'tiborlisi, "Jasorat maktabi"da ta'lim olish istagidagi nomzodlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Agar o'tgan yili har bir o'quv o'rniga



o'rtacha 5 nafargacha nomzod da'vogarlik qilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 8 nafargacha yetdi. Bu esa mazkur ta'lim muassasalariga bo'lgan

qiziqish va ishonch tobora ortib borayotganini yaqqol namoyon etdi.

**Nozima MAJIDOVA,
o'qituvchi**

Memorandum

XAVFSIZ YO'L MAQSADIDAGI HAMKORLIK



O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati va O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Mazkur hujjat YHXX boshlig'i Murodbek Sherliyev va "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov tomonidan imzolandi.

Hamkorlikdan maqsad "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarining avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida o'qitilayotgan nomzodlarga yuqori sifatli ta'lim berish va aholi orasida yo'l harakati qoidalariga rioya qilishni keng targ'ib etish orqali yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi.

Tashkilot o'quv muassasalarida YHXX xodimlarini o'qitish, qayta tayyorlash va ekstremal vaziyatlarda transport vositalarini boshqarishni o'rgatish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir tadbirlarni hamkorlikda o'tkazish – memorandumning asosiy yo'nalishlaridan sanaladi.

Shuningdek, "Vatanparvar" tashkiloti hududiy kengashlari va o'quv muassasalari tomonidan YHXX tarkibiy bo'linmalariga ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalariga bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishda amaliy yordam berib borilishi belgilangan.

Hamkorlik kelishuviga ko'ra, YHXX xodimlarining farzandlari "Vatanparvar" tashkilotining avtomotosport, biatlon, duatlon, pnevmatik quroldan o'q otish, modelchilik kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan bepul seksiya va to'garaklarida shug'ullanishlari ta'minlanadi.

Islahotlar samarasi

YANGI AVTODROM
EL XIZMATIGA SHAY

"Vatanparvar" tashkiloti Farg'ona viloyati kengashi tasarrufidagi O'zbekiston tumani o'quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan o'quv avtodromi foydalanishga topshirildi.



Tantanali ochilish marosimida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati, viloyat va tuman mutasaddilari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov o'z nutqida yig'ilganlarni yaqinlashib kelayotgan eng ulug' va eng aziz bayram – davlatimiz Mustaqilligining 35 yilligi bilan tabriklab, ushbu avtodrom tuman aholisi uchun tashkilot sovg'asi ekani bildirdi va kelgusida Farg'ona vodiysida fuqarolar unumli foydalanadigan yana ko'plab zamonaviy inshootlar topshirilishi rejalashtirilayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, so'zga chiqqan boshqa mutasaddilar ham yig'ilganlarni ushbu voqelik bilan tabriklab, o'zlarining ezgu tilaklarini izhor etdi.

Tashkilotning viloyat kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga 13 ta "KIA Sonet", 4 ta "Chevrolet Onix" va 5 ta "FOTON" avtomobillarining topshirilishi tadbirga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi. Endilikda ushbu yengil va yuk o'quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida "B", "BC" va "C" toifalari bo'yicha o'qiyotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanadi.



Bellashuv

Qirg'izistonda sportning yozgi biatlon turi bo'yicha Osiyo kubogi musobaqasi o'tkazildi.



Issiqko'l viloyatida tashkil etilgan musobaqada 5 ta davlat – Rossiya, Mo'g'uliston, Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'izistonning 80 dan ortiq sportchi biatlonning turli mashqlarida bellashdi.

Musobaqada ayollar "3 km – sprint" mashqida hamda 7,5 km – roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonga qarata o'q uzdi.

Erkak sportchilar esa "4 km – sprint" mashqlarida hamda 10 km – roller-sprint" mashqlarida 1 marotaba yotgan va turgan holda nishonni mo'ljalga oldi. Sportchilar, shuningdek "Pasyut" va "Individual poyga" bahslarida ham o'zlarini sinab ko'rdi.

Bellashuvda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat milliy terma jamoa

OSIYO KUBOGIDAGI
MEDALLAR SHODASI

mamlakatimiz sha'nini munosib himoya qilib, 8 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

Jumladan, qizg'in kechgan kubok musobaqasida sportchilarimiz quyidagi natijalarga erishdi:

1. Yusuf Abdullayev "Roller-sprint" mashqida 1-o'rin.
2. Rouan Raimkulov "Mass-start" mashqida 1-o'rin.
3. Rolan Raimkulov "Sprint" mashqida 1-o'rin.
4. Sherillo Lutfullayev "Individual poyga" mashqida 1-o'rin.
5. Bekzod Bekov "Pasyut" mashqida 1-o'rin.
6. Despina Bandaletova "Sprint" mashqida 1-o'rin.
7. Inobat Tojiboyeva "Mass-start" mashqida 1-o'rin.
8. Tamila Qo'chqorova "Pasyut" mashqida 1-o'rin va "Individual poyga" mashqida 2-o'rin.
9. Suhrob Rajabov "Mass-start" mashqida 2-o'rin.
10. Dilmurod Abdurahmonov "Sprint" mashqida 2-o'rin.
11. Bekzod Xo'janazarov "Individual poyga" mashqida 3-o'rin.
12. Noila Madaminova "Mass-start" va "Individual poyga" mashqlarida 3-o'rin.



Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining Jizzax viloyati kengashi hamda viloyat texnik va amaliy sport turlari markazi tomonidan viloyatda sportni yanada rivojlantirish, uning ommaviyligini oshirish borasida izchil sa’y-harakatlar olib borilmoqda.



SPORTNI OMMALASHTIRISH yoʻlida

Jumladan, sport seksiyalari faoliyatini, uning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, zamonaviy anjom va jihozlar bilan ta'minlash hamda yoshlarni seksiyalarga ko'proq jalb qilish kabi vazifalar shular sirasidandir.

Bugungi kunga kelib yoshlar “Vatanparvar” tashkilotining viloyat kengashi tizimidagi barcha tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan “Havo multigʻidan oʻq otish”, “Yozgi biatlon”, “Duatlon”, “Triatlon”, “Karting”, “Aviamodel”, “Raketamodel”, “Avtokross”, “Motokross”, “Radiosport” kabi seksiya va toʻgaraklarda katta qiziqish va ishtiyoq bilan muntazam shugʻullanib kelmoqda. Oʻz navbatida, mashgʻulotlardan tashqari, belgilangan reja asosida uyushtirilayotgan musobaqalar sportchi yoshlarning tajriba va mahoratlarini maromiga yetkazishga xizmat qilmoqda.

– Sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha 2026-yilga mo'ljallangan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasiga asosan, viloyat terma jamoasining tizim tashkilotlari bo'yicha o'tkaziladigan respublika miqyosidagi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtiroki ta'minlanmoqda, – deydi markaz direktori Gulhayo Tursunova. – Bu musobaqalarda yuz nafardan ziyod iqtidorli sportchimiz o'z mahoratlarini namoyish etdi. Shuningdek, viloyat kubogi, chempionat va birinchiliklarda ming nafarga yaqin o'g'il-qizimiz qatnashib, tegishli me'yor talablarini bajardi.

Joriy yilda ham viloyatimiz ko'plab nufuzli musobaqalarga mezbonlik qildi. Masalan, avtokross, motokross sport turlari bo'yicha respublika miqyosida sport musobaqalari o'tkazildi. Ayni paytda viloyat terma jamoasining bir qancha a'zolari respublika miqyosida o'tkaziladigan nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Chunonchi, muassasamizning avtokross va motokross ustalari Temur Anorqulov, Akramxo'ja Sunnatxo'jayev, G'ayrat Odilov, Baxtiyor Toshboyevlar "Muynoq - 2026" avtoralli bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionatida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Shu kunlarda ham viloyatimiz sportchilari orasida respublika musobaqalarining ko'plab g'olib va sovrindorlari yetishib chiqmoqda.

Ayni paytda muassasada nafaqat sport turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu kunlarda bu yerda "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Buning uchun sinfxonalar talab darajasida jihozlandi. Turli toifali haydovchilar tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun yangicha formatdagi avtodrom barpo etildi. Zamonaviy rusumdagi yengil va yuk avtomobillari xarid qilindi.

Shuningdek, yoshlarni ona Vatanga sadoqatli farzandlar sifatida tarbiyalash borasida viloyat mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi boshqarmalari va harbiy qismlar bilan hamkorlikda belgilangan reja asosida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Oromgoh – 2026

QUVONCHLI LAHZALAR, UNUTILMAS XOTIRALAR –

“Tong” da mavsum yakunlandi

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli “Tong” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida yozgi mavsum o‘z nihoyasiga yetdi.



Har yili harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar tizimida mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilar hamda xizmat vazifasini bajarish vaqtida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a‘zolarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etiladigan mazkur oromgohda bu yil ham bolalarning maroqli hordiq chiqarishi, mazmunli vaqt o‘tkazishi va yangi bilim hamda ko‘nikmalarni egallashi uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi.

Besh mavsum davomida respublikamizning turli hududlaridan kelgan bolajonlar oromgohning so‘lim va fayzli maskanida dam olib, sog‘lomlashtirish tadbirlarida faol ishtirok etdi. Ular uchun sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar, turli to‘garaklar, ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar hamda ko‘ngilochar dasturlar tashkil etildi. Oromgohda bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan bir qatorda, ularning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Xususan, xorijiy tillarni o‘rganish mashg‘ulotlari interaktiv usullar asosida olib borilib, bolalarning ingliz, ispan, turk, hind va koreys tillariga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qildi. Shuningdek,

“Mohir qo‘llar” mashg‘ulotlarida bolalar turli buyumlar tayyorlash orqali o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etdi. Sport yo‘nalishidagi mashg‘ulot va musobaqalar esa bolajonlarning chaqqonligi, jismoniy chiniqishi hamda jamoaviy harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Oromgoh hududida o‘tkazilgan turli bellashuvlarda bolalar o‘zaro do‘stona raqobat muhitida ishtirok etib, g‘oliblik uchun astoydil kurashdi.

Mavsum davomida yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarga ham keng o‘rin berildi. Harbiy xizmatchilar hayoti va faoliyati, Qurolli Kuchlarimizning tarixi hamda bugungi kundagi salohiyati haqida suhbatlar tashkil etilib, bolalarda harbiy kasbga bo‘lgan qiziqish yanada oshirildi.

Mavsum yakuniga bag‘ishlangan tantanali tadbir esa oromgoh tarbiyalanuvchilari uchun unutilmas taassurotlarga boy bo‘ldi. Unda bolajonlar tomonidan tayyorlangan kuy-

qo‘shiqlar, raqs va sahna ko‘rinishlari namoyish etildi. Faol ishtirok etgan hamda turli tanlov va musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etgan bolalar munosib taqdirlandi.

Tadbir davomida yozgi mavsum davomida orttirilgan do‘stlik, quvonchli lahzalar va unutilmas xotiralar yana bir bor yodga olindi. Bolajonlar uchun tashkil etilgan yakuniy bayram dasturi yuqori kayfiyatda o‘tib, mavsumga o‘ziga xos yakun yasadi.

Shu tariqa Mudofaa vazirligiga qarashli “Tong” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohidagi navbatdagi yozgi mavsum ham yakunlandi. Shubhasiz, bu maskanda o‘tgan kunlar bolajonlarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Oromgohda yaratilgan sharoitlar, tashkil etilgan tadbirlar va samimiy muhit ularning nafaqat maroqli dam olishiga, balki bilim, ko‘nikma va iqtidorlarini namoyon etishiga ham xizmat qildi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”**



MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Ulug‘bek Fattaxov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov

Sahifalovchi: Tohirjon Turg‘unboyev

Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6175

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 32 075 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“IBRAGIMOV RAHIMJON MAXMUDOVICH” YTT hamkorlikda “O‘zbekiston” NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



www.mudofaa.uz



t.me/mv_vatanparvar_uz



t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz



vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya